



• SO'Z CHAMANI •

LUTFIY




821.5P2 P33

L 93	2020/131-48
------	-------------


Luffy

2020/131-48

62/5/2020
L.92



SO'Z CHAMANI



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*
Alisher Navoiy

LUTFIY

16+

Toshkent
«Akademnashr»
2020

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)1

L 93

L 93

Lutfiy [Matn] : g'azallar / nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. -
Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.


ISBN 978-9943-6359-0-6

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)1

Nashrga tayyorlovchi va ilmiy-ma'rifiy izohlar muallifi
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi
MIRZO KENJABEK

«So'z chamani» turkum kitoblarning ushbu risolasi o'z davrining «Malik ul-kalom»i, ya'ni «So'z sulton» bo'lgan Mavlono Lutfiy (XIV–XV asrlar) she'rilaridan tuzildi. Mavlono Lutfiy turkiy-o'zbek mumtoz adabiyotining sardaftarlaridan biridir. Alisher Navoiy o'z asarlarida Mavltoni Sharq she'riyatining Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy kabi buyuk so'z ustozlari qatoriga qo'yib, u zotga yuksak baho berganlar. She'r-larni saralashda marhum olim Sodir Erkinov nashri nusxalaridan istifoda etildi. Ushbu nazmiy guldasta she'riyat muhoblari uchun sevimli bo'ladi deb ishonamiz.



48331
291

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

Навоий

**HAZRAT ALISHER NAVOIYNING
MAVLONO LUTFIY
HAQLARIDAGI SO‘ZLARIDAN:**

«Mavlono Lutfiy (alayhirrahma) o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur...» («Majolis un-nafois»).

* * *

«Va Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o‘n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun, shuhrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she‘rlarig‘a javob aytibdur va yaxshi aytibdur» («Majolis un-nafois»).


* * *

«Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni (shariat ilmlarini) takmil qilg‘ondin so‘ngra Mavlono Shihibiddin Xiyoboniy (alayhirrahma) qoshida sufiya tariqida ham suluk qilg‘ondur. Aziz va mutabarrak kishi erdi. Bu faqir (ya‘ni, Navoiy) borasida ko‘p fotihalar o‘qubdur. Umid ulkim, chun darvish kishi erdi, ba‘zi mustajob bo‘lmish bo‘lg‘ay.


Mavlononing qabri shahr navohisida – Dehikandakim, o‘z maskani erdi, andadurur» («Majolis un-nafois»).

* * *

«Tahsil ayyomida Mavlono Shihobuddin Xiyo-
boniy xizmatig‘a yetar ekandur va odobi tariqat su-
lukini andin kasb qilur erkondur. Agarchi shoirliq
tariqida ma‘ruf va mashhur bo‘ldi, ammo darvish-
lik tariqini dag‘i ilkidin bermadi. Bu faqir borasig‘a
ko‘p iltifoti bor erdi va fothalar o‘qur erdi va doim
volida mulozamatig‘a va rizoye xotirig‘a targ‘ib qi-
lur erdi» («Nasoyim ul-muhabbat»).



G'azallar



* * *

Ey, ikki jahon birliging isbotiga go'yo,
Zarroti jahon mazharida¹ kun kibi paydo.

Ham Avval-u, Oxirsen-u, ham Zohir-u Botin,
Ham Mubdiyi ashyosen-u, ham Hayyi tavono².

Bosh birla muallaq turar amringni eshitib,
Ko'kning tabaqotikim, erur xirqasi xazro³.

¹ Mazhar – biror narsaning zohir bo'ladigan, paydo bo'ladigan, ko'rinadigan joyi, ko'rinish. Bayt ma'nosi: «Ey ikki jahon birliging – yakka-yagonaliging isbotiga tili go'yo bo'lib, ravon gapiruvchi bo'lgan Zot! Ey Senung qudrating, masnu'oting – yaratmush narsalarning jahon zarralarining ko'rinushida kun kabi – quyosh kabi paydo bo'lgan Zot!» Bu o'rinda Haq taoloning Zoti emas, balki masnu'oti – yaratmush narsalarining ko'rinish joyi quyoshga o'xshatilyapti.

² Bu tavsiflar «Asmoi husn»dan, ya'ni Haq taoloning 99 ta eng go'zal ism-sifatlaridan olingan.

Al-Avval: har borliqdan avval bo'lgan, borlig'ining avvali – boshlanishi bo'lmagan Zot. Al-Oxir: so'nggi qolguvchi bo'lgan, borlig'ining oxiri bo'lmagan, borlig'i doimiy – abadiy bo'lgan Zot. Az-Zohir: Borligi cheksiz qat'iy dalillar bilan oshkor bo'lgan, ko'rinotdagi asarlari – masnu'oti bilan ma'lum bo'lgan Zot. Al-Botin: Borligining mohiyati yashirin bo'lgan, ko'rilmaydigan, sezgi a'zolari bilan idrok etib bo'lmaydigan, aql, tasavvur va idrokdan maxfiy bo'lgan Zot.

Al-Mubdi': mavjudotni hali misli-musoli, namunasi bo'lmay turib, ilk yaratgan, maxluqotni yo'qdan bor qilgan Zot. Al-Hayy: azaliy va abadiy tirik va hayot bo'lgan, hech qachon o'lmaydigan, hayotni o'rab-qamragan va butun hayotlarning manbayi bo'lgan Zot.

³ Muallaq – «osilgan», «osilib turgan» degan ma'nodadir. Tabaqot – «qavat»ning ko'pligi, tabaqalar, qavatlar, darajalar. Xirqa – shayxlik yoki darveshlik kiyimi, ya'ni oshiqlik va onflik libosi. Xazro – yashil, ko'kumtir, sabz. «Xirqasi» – darveshlik libosi, oshiqlik va onflik kiyimi ko'kumtir bo'lgan osmon tabaqalari – qavatlar. Senung amringni eshitib, boshni bilan muallaq osilib turtbdi, ya'ni Senung amr-farmoningga bo'ysungan holda bosh egib turtbdi.

Bahr-u barr erur g'arqi ni'aming, oning uchun,
Daryog'a tegar mavj tun-u xorg'a xoro⁴.

Anvoyi mazohirkim erur husnun(g)ga mir'ot,
Ismedur-u, yo'q Sensiz anga hech musammo⁵.

Husn elining og'zidin tushmaydur otingkim,
Har zarra erur vahdating izhoriga go'yo⁶.

Ahmad dami «Lo uhsiy» urar chun sifatingda,
Ne haddi bila Lutfiy sano aylasun insho?!⁷

* * *

Oy yuzung olida xijil husn eli Rum-u Chin aro,
Valvala soldi ko'zlaring kofir-u ahli din aro...

⁴ Xoro – 1) qattiq tosh; 2) tovlanib turadigan qimmatli ipak to'qima. Isro surasining 70-oyatiga ishora, ma'nosi: «Darhaqiqat, Biz Odam farzandlarini (ya'ni, imon ahllarini) aziz-u mukarram qildik, ularni barr-u bahrda – qu-ruqlik va dengizda (ulovlarda) ko'tarib qo'ydik, ularga go'zal, pok, halol narsalardan rizq berdik va haqiqatan, ularni O'zimiz yaratgan ko'plab narsalardan ustun qildik».

⁵ «Xilma-xil mazharlar, ya'ni ko'rinish turuvchi turli-tuman narsalar narsalar Se-ning husningga ko'zgidir, oinadir. Ularning hammasi bir ismdan iboratdir-u, lekin ularga Sendan boshqa nom beruvchi zot yo'qdir».

⁶ «Senung muborak, go'zal nomung husn ahlining, go'zallik ahlining tilidan tushmaydi, chunki har bir zarra Sening birligingni – yakka-yagonaligingni osh-ko'r so'zlab turadi!»

⁷ «Modomiki, hazrat Ahmad, ya'ni janob Muhammad alayhissalom: «Lo uhsiy», – deb so'z aytgan ekanlar, Lutfiy qaysi haddi bilan Senga sano aytib, go'zal tavsiflaringni bayon qilsin! Janob Payg'ambar alayhissalomki, shunday degan bo'lsalar, bizga yo'l bo'lsin». «Lo uhsiy» iborasi mumtoz she'riyatda ko'p uch-raydigan muborak iboradir. Chunki bu so'z go'zal hadisi sharifdan olingan: «Lo uhsiyu sano'an alayka, anta kamo asnayta alo nafsik», ya'ni: «(Ey Allohim!) Sen O'z Zotingni O'zing tavsif qilganingdek men Sen tavsiflab, go'zal sifatlaringni so'zlab, sanog'iga yete olmayman».

Chun meni o'lturur bukun ul rux-u oraz orzusi,
Ravzada tobqamen o'run lola-u yosumin aro.

Yangi ekanda ko'rmadi hech kim oy tutulg'onin,
Chin ne uchun tutar qoshing, yo Rabb, o'shal jabin aro.

Zulfung ila chu nofadin urdi dam ohuyi Xo'tan,
G'amzang otimchisi o'qi nofanu o'ydi Chin aro.

Aql dediki: «Zarraye mehr yo'q anda og'zitek»,
Qildi tabassum o'ylakim, tushdi gumon yaqin aro.

Qilma havola hajr ila Lutfiyni o'lturur uchun,
Tez qilichni elga ol, tutmog'il oni qin aro.

* * *

Ey pari yuzluk begim, jonlar fido bo'lsun sanga,
Dunyada husn oti bor erkan, baqo bo'lsun sanga.

Haddi maxluqotdindur nari ul husn-u jamol,
Ulki yo'qtur rahm erur, bu ham ato bo'lsun sanga.

Iymanib hosid tilindin, dast bermas chun salom,
Ko'z uchi birla yiroqtin «Marhabo!» bo'lsun sanga.

Chun vafosizlarga bermishlar azalda ko'rkni,
Bu kamoli husn ila qaydin vafo bo'lsun sanga?!

Bir qiyo boqsang zakoti husn uchun, ey ko'rka boy,
Lutfiyi miskindin o'lguncha duo bo'lsun sanga.

* * *

Qachonki g'amzasi ko'z qonima qaro qilsa,
Xatosiz o'qni urar jonima, xato qilsa.

Jafo ko'rub, oning uchun chiqar mening jonim,
Meni xud o'lturur ul g'amza, gar vafo qilsa.

Ko'ngulsiz etti ko'zi, vah, ne bo'ldi, Tengri uchun,
Dudog'idin meni bir suv urub, davo qilsa?

Yuziga sochdin o'gun tegmasun parishonlig',
Ko'ngulni ul tun-u kun necha mubtalo qilsa.

Shakardek og'zi manga qubla⁸ omad xufya,
Nedur so'zi on(ng), shirin kerak, ado qilsa.

Qachon xirom etsa, gulgun qabo kiyib ul sarv,
Tilar bu g'uncha ko'ngul, kurtani qabo qilsa.

Qayu inoyatig'a Lutfiy uzr qo'lsunkim,
So'kunji uhdasidin chiqmag'ay, duo qilsa.

⁸ Qubla – bo'sa, o'pich. (Qibla – yuzlanadigan tomon, muqaddas Ka'ba.)

* * *

Jon netkay erdi, dardin(g)ga hamroh bo'lmasa?
Dunyada munisi g'am-u dilxoh bo'lmasa.

Zulf-u yuzung firoqida oshiq netar, hayot,
Onsiz kerakki, sol, dog'i moh bo'lmasa.

Ko'nglum yorilg'ay erdi, torilg'ab firoqdin,
Ey voy, agar bu ko'z yoshi-yu oh bo'lmasa.

Dilbar itob-u javr-u jafu qilsa, ishidur,
Bızdin kerak vafodaki, bir oh bo'lmasa.

Aytilmayin ko'ngul g'ami, jon yetti irnima,
Faryod, agar bu holdin ogoh bo'lmasa!

Kuygan ko'ngulni xomtama qilmas erdi yor,
Ko'z uchidin karashmasi goh-goh bo'lmasa.

O'lturgay erdi Lutfiyni, g'am yolg'uzun ko'rub,
Billoh, xayoli hozir-u talloh bo'lmasa.

* * *

Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur manga,
Ulki, yoding birla jon bersam, kifoyatdur manga.

Kechalar zulf-u uzoring vasfida fikr aylasam,
Har qorong'u tunda yuz shami hidoyatdur manga.

Javrung ortar har dam-u, shoyista xizmat menda yo'q,
Ne sababtin, yo Rabb, ushmuncha inoyatdur manga!

Chun xayoling kelsa, ko'z yoshi nazar yo'lin tutar,
Axtari sayyoradin ushbu shikoyatdur manga.

Og'zingizdur sirri g'ayb-u, andin etsam nuqtaye,
Haddi idrok ermas, izhori valoyatdur manga.

Har nima bo'lsa, anga bordur nihoyat oqibat,
Noz-u bedoding dururkim, benihoyatdur manga.

Lutfiying nazmi duriga solsangiz, shohim, quloq,
G'oyati tahsin-u anvoyi inoyatdur manga.

* * *

Jamol-u husningga so'z yo'q, vafo kerak bo'lsa,
Meni xud o'lturadursan, ravo kerak bo'lsa.

Ko'ngul chu bilmayin o'z haddini, seni sevdi,
Balo-yu g'ussa bila muftalo kerak bo'lsa.

Jafoni jonima oz qilki, nogohon bir kun
Jafo tugansa, netarsen, jafo kerak bo'lsa?

«Ko'ngulni o'zgaga bergib», – demangki, mushkildur,
Jahonda siz kibi bir dilrabo kerak bo'lsa.

Kishikim o'z jonig'a qasd etar, seni sevsun,
Dag'i eshikingga kelsun, balo kerak bo'lsa.

Jamol-u joh elidin yuz farog'atim bordur,
O'ramung iti menga oshno, kerak bo'lsa.

O'qu bu Lutfiy mungluq niyoznomasini,
Savob-u alqish-u yuz ming duo kerak bo'lsa.

* * *

Suratingni kimki ko'rdi, qildi, jono, jon fido,
Siyratingg'a xud qilur, olib farishta iqtido.

Nechakim zulfungda bor kufr-u zalolat zulmati,
Ravshan ul oydek yuzungda bordur ul nuri Xudo.

«Intiho yo'qmu?» – desam husnungga, aytur ko'zlaring:
«Qaydasan, men xud baloni qildim emdi ibtido».

Sehr ishin Kashmir eli g'amzangdin o'rgansa kerak,
Kim, jahon ichra bo'lubtur ul bu fanda muqtado.

To deding la'ling zakoti men faqirga bo'lsa sarf,
Shukrining emdi oni shirin kerak qilsam ado.

Sensızın qilmay tahammul, nola qilsam, qilma ayb,
Gar bu yuk yuklansa toqqa, kelgay ondın yuz sado.

Itlaringning mansabin Lutfiyg'a ta'yin aylakim,
Davlatungda qilsa sultonlig' ne bo'lgay bir gado?

* * *

Oy yuzung lavhinda mahfuz oyati «Umm ul-Kitob»⁹,
Tug'madi barlos ulusindin seningdek oftob.

Subhi davlat mashriqi, nuri tajalliy matlayi,
Tal'atındurkim, hayosidin bo'lor har dam gulob.

Qo'pti husnungdin qiyomat yetti kishvardin bu kun,
Ishta¹⁰, qosh-u ko'z, kiprik – daftari yavm ul-hisob.

Zulmatobodi jahonda orazingdur shami nur –
Kim, qilur ham lam'asi turluk-tuman oftob.

Mohi Kan'oniki, Misr ahli ko'rub, el kesdilar,
Tushta hargiz ko'rmadi, billoh, bu husni ob-u tob.

Ayn erur mus'haf yuzungda Ashri oyoti jamol,
Vaqf lozim – «mim» og'iz, vallohu A'lam bis-savob.

⁹ «Umm ul-Kitob» – Kitobning (Qur'onning) asli, onasi. Oli Imron surasi, 7-oyatida kelgan ibora. Oyat ma'nosi: **«Sizga Kitobni (Qur'onni) nozil qilgan Zot Udir. U (Qur'on)ning bir qismi muhkam (ochiq va aniq) oyatlardirki, ular Kitobning onasi (asli-tamali)dir; bir qismi esa mutashobih oyatlardir...»**

¹⁰ Ishta – «mana» degan ma'noda.

Bir yoshingga Tengri yuz yosh bersun, Lutfiy qul,
Yo Iloho, bu duo hazratga bo'lsun mustajob!

* * *

Ey g'amza bila ko'nglum uyin qilg'uchi g'orat,
Asru dag'i buzma, chu seningdur bu imorat.

Ittek chu meni jon torturaturguncha munungdek,
Ko'z qoq bir-u¹¹, kirpuk o'qina qilg'il ishorat.

Sen husn ila boysen, senga chun farz durur Haj,
Qil Tengri uchun Ka'bayi ko'nglumni ziyorat.

Yuz surmadin ortuq tutar irning to'zini ko'z,
Tortib bilayin, bo'lmasa onda bu basorat.

Yer uzra etak sudrab o'tubsiz, oning uchun
Tufroq ila har yerda ravo bo'ldi tahorat.

Hajringda ko'zumning sadafidin to'kulub dur,
Har damki, kelur yodig'a ul lafz-u iborat.

Bu Lutfiyning ohi o'tidin kuymadi ko'nglung,
Kuydurdi falak bag'rini, lekin bu harorat.

¹¹ «Bir ko'z qoq-u», – deyilmoqchi.

* * *

Labing latofatidin, baski, fahm qildi uyot,
O'lum, qaro zulumot ichra kirdi obi hayot.

Saloh ahlını ozg'urdi yo'ldin ul qomat,
Ne qad bo'lur, bu ne qomat, ne fitnalik harakat.

Nabot narxini sindurmasa shakar iring,
Ne ishki, teng sotilur tol yig'ochi birla nabot.

Yo'q og'zingiz kibi shirin kalom mantiqda,
Ki, qildi javhari fard o'z vujudidin isbot.

Jamol boylig'ida Lutfiy sori boq, sadaqang –
Ki, farzi ayn erur, albatta, mustahiqqa zakot.

* * *

Zulfungni ko'rub qildi ko'ngul mayli ziyorat,
Ul silsilag'a berdi ravon dasti irodat¹².

Har kimki shahid bo'lmadi dilbar qilichidin,
Bechora borib topmadi ul shahdi shahodat¹³.

¹² Silsila – zanjir, tizim, halqa tizimi. Ravon – 1) yuruvchi, ketuvchi, o'tuvchi; 2) oquvchi; 3) tez, tezda, darhol, filhol. Dasti irodat – 1) qasd, niyat, xohish, istak; 2) muridlikka qo'l bermoq, *pirya* qo'l berib, murid bo'lmoq.

¹³ «Dilni tortuvchi sevikli zotning muhabbat qilichidan kim shahid bo'lmagan bo'lsa, u bechora borib, shahodat shahdini, ya'ni avvalo, iymon asalini, shahidlik bolini topmagan bo'ladi».

Sochingni ko'rub, halqa bago'sh o'ldi qoshingda,
Har kimki urar erdi burun lofi siyodat¹⁴.

Oshiqqa o'zin sotsa raqibing, nega mengzar?
Arslon bila tulkugaki, lof ursa jalodat¹⁵.

Xurshid tug'ar har kun o'shul oy yoqasidin,
Oy ko'nglakiga Haq ne balo berdi saodat!¹⁶

Qutlug' ayog'ing yerga tegibdur, oning uchun
El yerga qo'yub bosh, qilur barcha ibodat¹⁷.

Ne bo'lg'ay, agar Lutfivi bechorani ko'rsang?
Kim, xayr ishidur – xastag'a kim qilsa iyodat¹⁸.

¹⁴ «Senung sochingni ko'rib, avval ulug'likdan, rahnamolikdan, shohlik-sultonlikdan lof uradigan kimki bor bo'lsa, endi huzuringda halqa bago'sh bo'ldi, ya'ni senga sodiq, samimiy qul bo'ldi». Halqa bago'sh bo'lmoq – mumtoz she'riyat tilida qul bo'lmoqni bildiradi. Chunki eski zamonda kimki qul bo'lsa, uning qulog'iga qullik halqasini taqib qo'yishgan.

¹⁵ «Agar raqibing o'zini oshiqqa sotsa, ya'ni o'zini oshuqlikka solib, ishq da'vosini qilsa, u nima narsaga o'xshaydi? U mardlikdan, pahlavonlikdan, botirlikdan lof uradigan arslon bilan tulkuga o'xshaydi. Ular hech bir mard, botir emasligi esa hammaga ma'lum». Jalodat – mardlik, botirlik, jasoratilik.

¹⁶ «Quyosh har kuni o'sha oynung yoqasidan chiqadi, ya'ni Payg'ambar alayhussalom hidoyat quyoshidir. Vo'ajab! Haq taolo oynung ko'ylagiga qanday buyuk saodatni berib qo'ygan ekan!» Bu o'rinda quyosh oynung yonidan chiqishiga ham ishorat bor.

¹⁷ «Senung muborak oyog'ing yerga tekkan ekan, shuning uchun xalq, odamlar boshini yerga qo'yib, hammalan Haq taologa ibodat qilishadi!» Bu xitob janob Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga qaratilgan.

¹⁸ «Bechora Lutfiyi bir borib ko'rsang, nima bo'lar edi, axir, bemorni yo'qlab, holidan xabar olish yaxshi, xayrli, savob ishdir!» Iyodat – bemorni yo'qlab borish, holidan xabar olish.

* * *

Xat qildi yuzung mus'hafidin husn rivoyat,
Ul mus'haf uza xatting erur husnun(g)ga oyat.

Mehringdin, ayo, oy-u falakka yetar ohim,
Qilmas, netayin, ko'nglungga bir zarra siroyat.

Jon topti imorat qadingiz tuzluki birla,
Ma'mur bo'lur adl ila har qayda viloyat.

Gar mehr-u vafo bo'lmasa, yo'qtur tama'im ko'p,
Ul ko'zdin erur bir nazare bizga kifoyat.

Ul yuz bila mehrimning emas g'oyati paydo,
Andoqki, sening husnungga yo'q hech nihoyat.

Hayratqa qolib, pista og'iz ochti-yu qoldi,
Majlisda chu og'zing soridin kechti hikoyat.

Haq birla niyozing agar, ey shoh, bor ersa,
Qil Lutfiyi miskinga jafu birla riyat.

* * *

Ey g'amzasi miskinlarga ko'p qilg'uchi bedod,
Jodu qaroqing sehr ila Horutg'a ustod.

20/131
48
Mushor Navoiy
nomidagi

Bir yo'li bu bechora duochingni unutma,
Bir kun senga bu so'zlarimiz kelgusidur yod.

Faryodim, o'shul yerga yetibturki, nechakim,
Faryod etaram, mendin eshitmas kishi faryod.

Tog'ni eritur ohim, asar qilg'usi bir kun,
Ko'nglung nechakim bo'lsa temur, tosh dag'i po'lod.

Bor qullug'unguz ishqı hanuz sarv boshında,
Tuzluk bila garchi ani qilmush qading ozod.

Hamdard ila holimni deyinkim, tusha bovar,
Ul damki yo'luqsa manga mahshar kuni Farhod.

Bu Lutfiyi bechorag'a gah-gah nazar ayla,
Ey turki sumansoidu, v-ey¹⁹ sarvi parizod.

* * *

«Pistadek og'zin(g)ga shakan», – dedilar,
«G'ayb sirin ne muxtasar», – dedilar.

Dedilar: «Orazingni oy ila kun,
Tengrining nurina nelar dedilar?»

¹⁹ "V-ey" – "va ey" so'zining qisqargan shakli.

Yuzung oling qiyomatini ko'rub:
«Jam'i ush-shamsu val-qamar», – dedilar.

«Qil uchi bor», – demishlar og'zingni,
Ko'rki: «Yo'q yerda ne xabar», – dedilar.

Vahdat ahli safo-yu tal'atungg'a:
«Partavi mabda' us-suvan», – dedilar.

Vasfi zulf-u ruhingda tushmadilar,
Har necha shom ila sahar dedilar.

Kim qoshingni hilola mengzatti,
Oni ishq ahli kajnazar dedilar.

Ahli savdo ko'ngul iloji uchun
Labi la'lingni gulshakar dedilar.

Tut quloq Lutfiyning iboratig'a,
Kim, oning lafzini guhar dedilar.

* * *

Ul ko'zki Horut²⁰ anga shogirdi kamindur,
Cho'lpon dedim, ul vajah ilakim tongg'a yaqindur.

Ul turrayi tarrorda ko'nglumni sezibmen,
Boshin ko'radurman quyi, egriligi chindur.

Kofir desa g'amzangni, o'q uchi bilan so'zlar,
Mehrob ichida qon qiladur, qoni nedindur?

Shak nuqtasidur la'l uza xol og'zing uchunkim,
Ne bori muayyandur-u ne yo'qi yaqindur.

Man etma ko'zungdin tilasam bir nazar, oxir,
Elga nazar aylar kishikim, go'shanishindur.

Kavsar suvidur irning-u yuz to'biy uza hur,
Har qaydagi sensan – manga firdavsi barindur.

Ul g'amzaning ashkolina ko'z solg'alı Lutfiy,
Tashir uchun ash'ori bari sehri mubindur.

²⁰ Horut – Qur'oni karimda zikri kelgan, insonlarni sehr balosidan ogohlantirib, sehri o'rgatuvchi ikki farishtaning biri. Baqara surasi, 202-oyati ma'nosi: «...**Lekin u shaytonlar insonlarga Bobildagi Horut va Morut ismli ikki farishtaga tushirilgan** (ilhom bilan bildirilgan) **narsani – (ya'ni) sehri o'rgatib, kofir bo'ldilar. Holbuki, u ikkovlari** (mo'jiza bilan sehri farqini bildirar va) **toki: «Biz faqat fitnarniz – imtihon (uchun yuborilgan)miz; zinhor (sehr qilib) kofir bo'lma!» – demasdan turib, hech kimga (biror narsani) o'rgatmas edilar.**

* * *

Jamolingkim tajalliy ko'zgidur,
Qaro tamg'oliq oy bir hindusidur.

Ko'zungga qosh erur payvasta moyil,
Magar boshin uyurgan jodusidur.

Xayoling ham biror tushimga kirmas,
Balo bo'lg'on manga baxt uyqusidur.

Ajalga qilmangiz tuhmatki, bizni
Halok etgan bu hijron qayg'usidur.

Manga ko'z haqqi ham tegmas, magarkim,
Dudog'ing sharbati jon orzusidur.

Meni ittek yugurtgan yozilarda
O'shul jodu qaroqlar ohusidur.

Tugandi umr-u, ko'rmas sizni Lutfiy,
Bu hasrat birla oxir o'lgusidur.

* * *

Sochingkim, mushk aning sharmandasidur,
Binafsha – bo'yni bog'liq bandasidur.

Manga yo‘q qayg‘uni qilg‘uvchi paydo –
O‘shal shakkar og‘izning xandasidur.

Katon²¹ yangliq meni behol qilg‘on –
Qamartek tal‘ati tobandasidur.

Biror so‘rmoqqa mungluqmen labingdin,
Bir og‘izkim, aning sharmandasidur.

Seni haddini bilmay sevgan uchun
Bu Lutfiy yuz balo arzandasidur.

* * *

Har kun manga yuz qatla gar ul oy ko‘runur,
O‘yla sog‘inur, ko‘zga magar soy ko‘runur.

Yuz bosh borur yelga shukufa kibi har dam,
Gul yuzuda chun zulfi sumansoy ko‘runur.

Har kecha yuzi yodi bila yig‘laram oncha
Kim, ikki ko‘zumning suvida oy ko‘runur.

Ne bo‘lg‘ay, agar qilsa ziyorat bu ko‘ngulni,
Haj qilsa kerak, husn ila chun boy ko‘runur.

²¹ Katon (katton) – oynung yorug‘iga chiday olmay tez yirtiladigan, kanopdan to‘qilgan kiyim.

Ul tosh ko'ngullik g'amida Lutfiy ko'zindin,
Har soriki ko'z kor qilur, soy ko'runur.

* * *

Gul chehralar ochunda agar sad hazor erur,
Sayd etguvchi ko'nglum qushin bir nigor erur.

Zulfi-yu, qoshlari-yu ko'zi fitnadur bari,
Ul sho'x boshida ne balo fitna bor erur?

Ey sarvi guluzor, yangoqingdin o'ftonib²²,
Yobong'a shahrdin qochibon, lola zor erur.

Ranjida bo'lmasun eshigiga, sen, ey sabo,
Xokimni eltsang, o'ylakim ul ne g'ubor erur.

Sarvi qadding xayoli tamannosidin, begim,
Boq Lutfiy ko'zigaki, na xush jo'ybor erur.

* * *

Husn-u jamol ichinda nechakim kamoli bor,
Oyning qachon sening kibi husn-u jamoli bor?!

Umrinda gul yuzun(g)ga o'zun bir dam o'xshatib,
Bo'lmish araqta g'arq²³, hanuz infi'oli²⁴ bor.

²² O'ftonmoq – uyalmoq, xijolat bo'lmoq, tortinmoq.

²³ Araqda g'arq bo'lmoq – terga botmoq.

²⁴ Infi'ol - xijolat, uyalish, biror narsadan ta'sirlanish.

Gulgun qabo netak quchar ul inchka belni,
Afsun o'qurmu, yoxud oning o'zga oli²⁵ bor?

Ilgin o'pub, oyoqina ko'nglak yengi tushar,
Bilmon, aning boshinda dog'i ne xayoli bor?

Og'zini bor desam, aning hech vujudi yo'q,
Belini yo'q desam, vale ehtimoli bor.

Zulfuni tong nasimi tushurmish qulog'ina,
Bu so'zni bir aytqali kimning majoli bor!

Nuqsoni ko'p har ishda bechora Lutfiyning,
Dilbar jamoli vasfida lekin kamoli bor.

* * *

Faryodki, boshimda xatarliq havase bor,
Ne sabr durur mumkin, ne dastrase bor.

Ul bel-u og'izdin ne tamattu²⁶ ko'rayinkim,
Ma'dum²⁷ tamannosi-yu, ne multamase bor.

Ey ko'zi qaro, bog'i visoling havasindin
Ne kirpukimizning orasinda Arase bor.

²⁵ Ol – 1) huzur, old tomon, ro'baro'lik; 2) peshona, chakka; 3) qizil, qizil tus; 4) hiyla, firib; 5) oila, xonadon, qarindosh-urug'. Bu o'rinda hiyla-firib ma'nosida kelmoqda.

²⁶ Tamattu – ne'matlanish, bahralanish, foydalanish.

²⁷ Ma'dum – mavjud emas, yo'q, yo'q bo'lgan.

Jon irnima yettu-yu, damim barcha durur oh,
Bu oh durur – menda agar bir nafase bor.

Sen o‘zga malohat bila jonlarg‘a kirarsen,
Dunyada yo‘q ersa, ey begim, husn base bor.

Jon-u ko‘ngil irning sori parvoz qilurlar,
Har qayda asal bo‘lsa, g‘uluyi magase bor.

Lutfiy tilagay ulki, yuzungni ko‘rub o‘lsa,
Rad qilmaki muskinga, muvajjah²⁸ havase bor.

* * *

Sening usruk ko‘zungga ne xabar bor?
Kim, ondin aql-u jong‘a ko‘p xatar bor.

Yo‘lungda qosh erur ko‘z bahrina pul²⁹,
Sanga har nechakim mundin guzar bor.

Munajjim qosh-u ko‘zung ko‘rgach, aytur:
«Kim, ushbu oy boshinda fitnalar bor.»

Qiron qildi ko‘zung oyttek yuzungda,
Qirondur andakim, ore, nazar bor.

Qazo kelganda Lutfiy o‘z halokin
Tilar, qoshingda komi bu qadar bor.

²⁸ Muvajjah – maqbul, yoqimli, yaxshi.

²⁹ Pul – ko‘prik, vosita. Bayt ma‘nosi: «Sening yo‘lingda qosh – ko‘z dengizi-ning ko‘prigidir».

Laylat ul-me'rojning³⁰ sharhi sochi tobindadur.
«Qoba qavsayn»³¹ ittihodir³² qoshi mehrobindadur.

Xizrning ayni yoshunmish, ko'ktin inmas ham Masih,
Netsun, ul mu'jiz bu dam yoquti serobindadur³³.

Xomayi qudrat-la bitganda ne mus'hafdur yuzi,
Kim, malohat³⁴ oyati majmu aning bobindadur.

Ko'p yugurdi ravzada aynan tusammo Salsabil,
Topmadi ul choshnikim, shakkari nobindadur³⁵.

³⁰ Laylat ul-me'roj – me'roj kechasi. Hazrati Payg'ambarimiz alayhissalomning Allohning huzuriga – g'ayb olamiga ko'tarilishlari. Me'roj voqeasi hijratdan bir yilcha oldin (milodiy 621-yili) yuz bergan.

Qoba qavsayn – ikki yoy miqdoricha. Najm surasining, 9 – 12-oyatlanga ishora, ma'nosi: **«O'rtadagi masofa ikki yoy miqdoricha, hatto yanada yaqinroq bo'ldi, shu asnoda (Alloh) vahiy etgan narsani (Jabroil orqali) bandasiga vahiy qildi. (Payg'ambarning ko'zi) ko'rgan narsani ko'ngil(i) yolg'onga chiqarmadi. Sizlar u bilan o'zi ko'rgan narsalar haqida tortishasizlarmi?»**

³² Ittihad – birlashish, birlash, qovushish (ikki yoyning bir-biriga yaqin kelishi).

³³ Xizrning ayni – Xizr alayhissalom hayot suvini topgan buloq. Majma' ul-bahraynga ishorat bor. Ko'ktin inmas ham Masih – Iso Masih ibn Maryam alayhissalomning osmondan tushishlari haqidagi islomiy e'tiqodga ishora. Baytning ma'nosi: «Xizr alayhissalomning abadiy hayot suvini topgan bulog'i ham, hazrati Iso Masih alayhissalomning osmondan tushish mo'jizalari ham u zotning yoquti serobida mavjuddir».

³⁴ Malohat – inson rangi, bu rangda bir porloqlik va yaltiroqlik, nurlilik mavjuddir. Yaxshilik, go'zallik idrokining tabiati va ko'minishini matbu' – tab'ga muvofiq va maqbul, marg'ub biladi. Unda marg'ubiyat bor («G'iyos ul-lug'at: 2:296»).

Bayt ma'nosi: «Jannatda Salsabil nomli buloq ko'p yugurib, Payg'ambar alayhissalomning toza, pok, sof, tiniq shakkarlarining ta'mini, totuni topa olmadi». Salsabil – jannatdagi buloq, aralashmasi zanjabil. «Aynan tusammamo Salsabil» – Qur'on oyati (Inson surasining 18-oyati) iborasi: **«Aynan fiyho tusammamo Salsabilan»**. Choshni – 1) ta'm, maza, tot. 2) bahra. Nob – toza, tiniq, sof. Inson surasi, 17 – 18-oyatlanga ishora, ma'nosi: **«U yerda aralashmasi zanjabil bo'lgan (to'la) qadahlarda (jannat sharobi) ichirilur. (U zanjabil) u yerda bir chashmadirki, u Salsabil deb nomlanur»**.

Zulfiga qadr-u barot o'xshar, vale yuz farqi bor³⁶,
So'z aning yonindagi xurshidi mahtobindadur.

Ko'zlari har go'sha uyqudin qo'porur fitnalar,
Turfa maxmureki, chandon fitnalar xobindadur.

Lutfiyini mayxonada oshufta ko'rsang, qilma ayb,
Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur³⁷.

* * *

Ulkim yangoqi ko'zuma gulzor ko'runur,
Xo'blar ko'zima andin ugun³⁸ xor ko'runur.

Ketti xiradim boshta, chu ul qoshini ko'rdum,
Oy boshta payvasta hilol, or³⁹, ko'runur.

Nozukligidin bodayi la'l irnina qo'ysa,
U yerga yetanchaki borur, bor ko'runur.

³⁶ Qadr kechasi – Ramazon oyining toq kechalari, xususan, 27-kechasi. Bu kechada Qur'on nozil bo'lgan. Barot kechasi – Hijriy yil hisobining sakkizinchi oyi bo'lgan Sha'bonning 14-ru 15-kechaga ulaydigan kecha (bu islomda mo'tabar kecha hisoblanadi). Barot – 1) oqlik qog'ozi; 2) yorliq qog'ozi.

³⁷ Oshufta: 1) maftun bo'lgan, berilgan, oshiq bo'lgan, shaydo bo'lgan; 2) parshon, tarqoq, to'zg'igan. Qullob: 1) qarmoq; 2) sirtmoq; 3) majozan: soch, zulf. Mayxona – tasavvufda 1) bandaning ishq va shavq bilan Rabbiga munojot qiladigan joyi; 2) komil onfrung ilohiy ishq, shavq va ma'rifatga to'la ko'ngli, xonaqoh; 3) lohut olami (Tahonaviy, II, 1653).

³⁸ Ugun – boshqa, o'zga, (biror kishi yoki narsadan) tashqari.

³⁹ Qo'lyozmada matnda ma'nosiga muvofiq «ore» (albatta, zotan) tarzida yozilgan.

Men faxr qilurmen, manga dashnom berurda,
Bilmas, kishilarg'a agar ul or ko'runur.

Man etgan uchun Lutfiyg'a ishq'i yo'li ichra,
Har qaydagi bir yor durur, ag'yor ko'runur.

* * *

Bo'lmasa gar ul sanami guluzor,
Bizga xazontek o'la bu navbahor.

Yordin agar kelsa qilich boshima,
Zarra firoq etmagaymen ixtiyor.

Yo'lida tuproq o'layin ot uchun,
To manga qilg'ay guzar ul shahsuvor.

Qoshi uchun jon beruram, do'stlar,
Toq qo'poringiz, yosog'onda mazor.

Yolg'uz emas, Lutfiykim, ul gul uchun
Nola-yu faryod qilur sad hazor.

* * *

Zotingda Haq izhori kamolot qilibtur,
O'z nuri bila suvratingizni yarotibtur.

O'n juzv turur erdi bori husn-u malohat,
Qismat kuni Haq to'qquz ulush sizga beribtur.

Bir juzvki, Yusufg'a tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham senga meros qolibtur.

Ko'rmish qora soch halqasi ostinda mengingni,
Jim o'rtasida ul kishikim nuqta solibtur.

Aysh-u tarab asbobini elga ulashurda
Husn eli karashmalari joning'a tegibtur.

Har fitnaki, angiz qiladur ul qora qoshi,
Yolg'iz mening olimg'a azaldin yozilibtur.

Ayittunki: «Bu Lutfiyga jafu qilma, vafo qill!»
Ayturki: «Biz(n)ing davrda ul rasm qolibtur».

* * *

Haq ul kunkim jamoling bor etibtur,
Jahon husnin borin sizga beribtur.

Pari-yu odami mundoq xo'b ermas,
Farishta go'iyu ko'ktin inibtur.

Quyosh oydek yuzungnung xijlatidin
Qochib, to'rtunchi ko'k uzra chiqibtur.

Yuzung nogah ko‘rub, oydek sog‘indim,
Magar hush-u xırad mendin ketibtur.

Xırad ketmay netar mendek gadodin?
Qoshimg‘a ul shahi xo‘bon kelibtur!

Qilur da‘viyi nur ul sham‘i majlis,
Magar parvona shomımdin olubtur.

Necha bu Lutfiy qulg‘a javr etarsen?
Vafo qilkim, jafu haddin oshibtur!

* * *

Halqa-halqa zulfkim, ul mohi tobonındadur,
Ching‘a boqsam, doldek xurshid aning yonındadur.

Porso mus‘haf yuzun ko‘rsa, ravon jon vaqf etar,
Dilraboliq oyati go‘yo aning shonındadur.

Zarratek tor og‘zıdın qaydin topilsun bizga kom?
Kim, kalom ahli aqal derlarki: «Yo‘q sonındadur»⁴⁰.

G‘olibokim, Yusufi Misriy tushunda ko‘rmadi,
Ul halovotlarki, la‘li shakkar afshonındadur.

⁴⁰ Ma‘nosi: «Kalom ahli, ya‘ni aqida ilmi olimlari: «Oz narsa yo‘q hukrudadin», – deydilar.

Bir qatig' jonliq jahonda ko'rmadim ko'nglum bikin –
Kim, chekar javr-u, burunqi ahd-u paymonindadir.

Xo'blar bo'lmas muningtek sho'x-shang-u dilrabo,
Bu qiliqlar barchasi ul ishvaning konindadir.

Lutfiy qul kirmas bitikka ko'p nasihat qilmangiz –
Kim, aning devona ko'ngli ishq farmonindadir.

* * *

Seni jamiki gulruksor derlar,
Meni ham andalibi zor derlar.

Bu had ermas, erur ruxi musavvar,
Ravon ulkim, ani raftor derlar.

Nazar ahli ko'rub nortek yangoqing,
Masal: «Bir nor-u, ming bemon» derlar.

Tabiblar borcha dardimdin haroson,
Tirilmakni base dushvor derlar.

Soching Rum ichra Chindin bosh chiqardi,
Ani ul vajhdin susmor derlar.

Ne ko'ngli sodda eldur ishq elikim,
Seningtek bevafoni yor derlar.

Adamdur ul og'iz fikrinda Lutfiy,
Xaloyiq bilmay oni bor derlar.

* * *

Jonni mehringga azal subhinda moyil qildilar,
Har ne qildilar, o'shul shakl-u shamoyil qildilar.

Yo Rabb, ul turrangmu yoxud dudi ohimdur mening?
Yo magar ashhabni egningga hamoyil qildilar.

Ul quyosh qursi uchun bir labqa mungluq bo'lg'ali,
Ko'zlarimning yoshini yuz sori soyil qildilar.

Shasti zulfung iqdinu tutmoqda mushkul qoldilar,
Halqavi dars ahlikim, halli masoyil qildilar.

«Ahsani taqvim»i isbotina ravshan vajah ila
Orazi oytek jabiningni daloyil qildilar.

Tuhmati ma'shuqliqni o'zgaga yopmoq uchun,
Yuz sari partav solib, oshiqni moyil qildilar.

Andakim gamzangni sarmasti mayi nob aylading,
Lutfiyi sohibnazardin aql zoyil qildilar.

* * *

So'zlarda qachonkim ko'zi qoshi bila o'ynar,
Har go'shada yuz ming kishi boshi bila o'ynar.

«Nun» qoshi uchun bahr qilib yer yuzini ko'z,
Ul mohi ko'zum mardumi yoshi bila o'ynar.

Shatranji latofatni utar nechakim ul oy,
Ruh tarh berib, charx quyoshi bila o'ynar.

Ko'rguzsa qaro, barham urar Chin-u Xitoni,
Ko'z ustidagi xoli chu qoshi bila o'ynar.

Jon naqdini ko'zung qoshida o'ynasa, Lutfiy,
Ayb etmakim, ul g'amza kengoshi bila o'ynar.

* * *

«Qoba qavsayn» maqominda ko'zung qon qiladur,
Har dam ul ko'ngli aro qasdi musulmon qiladur.

Kun yuzung olidagi zulf kibidur zulumat,
Kimki oy desa seni, husnun(g)ga bo'hton qiladur.

Qiyoy boqmoqda, agar qilmasa qon jodu ko'zung,
Go'shada ne uchun oy o'zini pinhon qiladur?

Garchi jon achchig'i dushvor erur odamiga,
Menga shirin dudog'ing xandasi oson qiladur.

Ahli savdog'a qilur bo'lsa, tatavvul⁴¹ turrang,
Boshta ko'nglum qora baxtini parishon qiladur.

Chilla bir ko'rgan uchun zohidi mehrobnishin,
Qoshlaring yosi uchun jonini qurbon qiladur.

Jon berur Lutfiy-u, yo'qtur sevarindin gilasi,
Har ne bedod-u sitam jonig'a hijron qiladur.

* * *

Ul zulfi tuzoqiki, ko'ngul saydi uchundur,
Har halqasi sarmoyayi asbobi junundur.

Yillar kerak ul g'amzaga shogirdlik etsa,
Horutki, ustodi tilismoti fusundur.

Chun aql kichiklikda-yu oy yangi ekanda,
Husningdag'i bu dardi dilim ro'zi fuzundur.

Burqani ko'tar, Tengri uchun, el seni ko'rsun,
Bu husn-u malohat yana qaysi kun uchundur?

⁴¹ Tatavvul – uzaygan, cho'zilgan, cho'ziq.

Lutfiykim, ochun xonlarini ilmadi ko'zga,
Qul bo'ldi jamolingg'a-vu, ishqingda zabundur.

* * *

Ko'zung qorasi – fitna, vale oqi balodur,
Jonlar oladur, vah, ne balo ko'zi qarodur?

Ko'z ustida jon olg'uchidir xoli-yu qoshi,
Bir-birga bari fitna qotilg'on ne balodur?

Hamdarddur, aytay anga holimkim, inong'ay,
Gulshandin o'shul bulbuli miskinki judodur.

«Bosh o'ynayin-u, jon berayin vasl uchun», – ayttim,
Xush-xush kulib aytur mangakim: «Yaxshi bahodur».

Ko'p qilma aning javridin, ey Lutfiy, shikoyat –
Kim, husn elining shevasi payvasta jafodur.

* * *

Ko'rgali la'ling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,
Bu yamon andishaliqni go'iyoyon qon tortadur.

Dod ko'zungdinki, dinga necha yuz ursam, meni
Kufr sori sehr ila ul nomusulmon tortadur.

Olida jon tortadurmen, to magar tushgay qabul,
Bir nazar qilmas bu miskin sorikim, jon tortadur.

Xoki poyekim, anga zulfi tegar, ko'p istaram,
Yo meni tuproq, yo rizqi parishon tortadur.

Mayl etar o'z jinsig'a har jins o'zini, lojaram,
Beli sori ul kamandi anbarafshon tortadur.

Qoshlari yosin quloqqa yetkura tortar ko'zi,
Ikki «yo»ni masti loya'qil⁴² ne oson tortadur?

Yo'q turur yolg'uz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur.

* * *

La'lig'a boqsam, bilurkim, ko'nglum ul yon tortadur,
Noz ila o'lturg'ali aytur: «Seni qon tortadur».

Chashmi mast-u jom la'lin ko'rgay erdi Xizr agar,
Ichkay erdi boda, ulkim obi hayvon tortadur.

Sohiri Bobilki, sehr ichra musallamdur bu kun,
G'amzangizning sahmidin yuziga qalqon tortadur,

⁴² Loya'qil – aqli yo'q, aql-hushsiz, aqli ishlamaydigan.

Garchi umrum kechti nola birla ul gul dardidin,
So'rmadikim: «Bu ne bulbuldurki, afg'on tortadur?»

«Ul sening oydek jamolingni viroqtin dunyada
Ko'rgamen», – deb banda doim mehnati jon tortadur.

Zulfungiz eltur meni gah Ka'ba, gohi dayrg'a,
Bandani har yergakim, ro'zi parishon tortadur.

Bordi, bermay sharbati vaslin bu xasta Lutfig'a,
Umr bordi-yu, hanuz ul ranji hijron tortadur.

* * *

Nortek yangoqing shavqidan jonlar bari afgor erur,
Ko'nglum qachon topsun murod, «bir nor-u, ming
bemor erur».

Men xud ajaldin ishqingiz yo'linda qayg'urman, vale
Yuzungni ko'rmay o'lganım hajringda, bas, dushvor erur.

Irning xayolin gar nihon tutsam ko'ngulda, ne ajab,
Mufliis kishi topsa guhar, yoshurmog'i nochor erur.

To zulfingizdin bog'ladim zunnor tarsolar bikin,
Iymonim ortar dam-badam, bu ne ajab zunnor erur.

Ko'rsang eshikingda meni bexud tushub, ayb etmakim,
Aqlimni g'orat qilg'uchi ul g'amzayi ayyor erur.

Iyso⁴³ falakka oshti, chun bo'ldi labing jon berguchi,
Sharmandalikdin ketmasa, ko'kta anga ne bor erur?!

Keldim eshikka, orzum yuzung durur, ko'rguz chiqib,
Kelginki, Lutfiy hojati uchmoq⁴⁴, emas diydor erur.

* * *

Ko'zim nazari toki yuzunguzga tushubtur,
Jon birla ko'ngul ishqing o'ti ichra kuyubtur.

Yor ırnı bila urmangiz, ey qand-u shakar, lof!
Chun obi hayot o'ftanib, andin yoshunubtur.

Zanburi asal og'zi to'la shahd ekanında,
Iringni ko'rib bemaza deb, bol to'kubtur.

Har qaysi pari suvratingiz aksini ko'rdi,
Devona bo'lubon, iligin tishlab o'tubtur.

Qaddingni bu Lutfiy demagay sarvi sihikim,
Yuz sarv aning olida xızmatda bo'lubtur.

⁴³ Iyso alayissalom – Bani Isroil payg'ambari.

⁴⁴ Uchmoq (uchmog') – jannat.

* * *

Yo Rabb, ul dilbar malak, yo hur, yoxud jon erur,
Haq nazar ondin ko'tarmas, xalq anga hayron erur!

Shakkar og'zingkim, kichiklikda yoshurdi zarrani,
Ul quyosh yuz uzra gah paydo-yu gah pinhon erur.

Oy-u kun yuzung bila lof ursalar, yo'qtur ajab,
Ore, lof urmoq yiroqtin barchag'a oson erur.

Og'zing o'lturdi tabassum birla bizni, tonmag'il,
Gar kishi o'lturmasa, ul ne uchun pinhon erur?

Qo'ymag'il hardam raqibimni qoshingda sur, begim,
Kim qo'tur itning damidin barchag'a nuqson erur.

Garchi zulfung chinida kofir bo'lub erdi ko'ngul,
Burqa olg'il chehradinkim, tolibi iymon erur.

Davri husnungda jafu birla bu Lutfiy ko'nglin ol,
Yodgori husn, ore, dunyada ehson erur.

* * *

Yoz fasli barcha shod-u, ko'nglimiz g'amnok erur,
Gul bikin jon ko'nglaki hijron elindin chok erur.

Ey firoq, o'ltur meni, filhol qutqor qayg'udin!
Yorsiz achchiq umr – zahr-u, ajal – taryok erur.

Arz qilma gullaringni bizga onsiz, ey bahor,
Qaysi gulning etagi oxir aningtek pok erur.

Jon agar ul oraz uchun borsa, yo'q ko'nglida rahm,
Suvsizin yuz bolig' o'lsa, bahrg'a ne bok erur?

Turbatimning toshig'a mundoq bitingkim: «Lutfiy qul –
Tosh bag'irliq yor uchun farsuda bo'lg'on xok erur».

* * *

Ey ko'z, yuziga boq-u, dag'i nuri safoni ko'r,
La'li labida xasta ko'ngulga shifoni ko'r.

Jonning vidoyidur ko'z uchi marhabosida,
Jondin ilikni yuv, dag'i ul marhaboni ko'r.

Ko'nglum eshigi itlarining mansabin tilar,
Xonliq tilar, bu himmati oliy gadoni ko'r!

Ko'z yoshi qatradin sanam ortuncha tinmadi,
Jon bermadi, bu ko'ngli qattiq muhtaloni ko'r.

Zulfi agarchi kufr-u zalolatg'a dol erur,
Oydek yuziga boqqil-u, nuri Xudoni ko'r.

Majnun kibi yo'lingda meni imtihon uchun
Turg'uz, abadg'a tekur-u, mendin vafoni ko'r!

Siymtak saqoqining mengi kuydurdi Lutfiyni,
Davri qamarning oxirida bu baloni ko'r.

* * *

Qadingning naxli, ey sarvi sarafroz,
Niholi dilraboliqtur, bari – noz.

Sening g'amzang balo bo'ldi ko'ngulga,
Baloangiz erur har qayda g'ammoz.

Qachon teksun yuzung sorig' yuzumg'a,
Qovushmaytur xazon birla, bale, yoz.

Uchar ruhim, sening yuzungni ko'rsam,
Bale, bulbul qilur gul sori parvoz.

Ko'zung ko'p elni eltur to'g'ri yo'ldin,
Sening yo'lingda bo'lg'ay ozmag'on oz.

Masiho, bir nima borkim ko'runmas,
Dudog'ing qilg'ali, jon bermak og'oz.

Itim deb Lutfiyni, shohim, o'karsen,
Hamin bo'lg'ay gadog'a haddi e'zoz.

* * *

Jon-u ko'ngul kishvarining xonisiz,
Husn-u latofat tanining jonisiz.

Vahki, ne xush toleyi mas'udi bor,
Ul falakekim, mahi toboni – siz!

Bizni suchuk so'zlaringiz qildi sayd,
Siz bu og'iz birla shakar konisiz.

Jon-u ko'ngul ichra urarsiz qadam,
Qaysi chaman sarvi xiromonisiz?

Shevada oniki to'kar el qoni,
Xuni tutib, siz, ey begim, onisiz.

Mangu yashar, kimki ko'rar sizni bir,
Vah, ne Xizr chashmavi hayvonisiz!

Lutfiyi musinga bu hijron tuni
Rahm qiling, garchiki sultonisiz.

* * *

Jon hasrat ila kuydi-yu, dildor topilmas,
Barcha topilur bizga, vale yor topilmas.

Gul keldi yuzung davridakim, husn sotay deb,
Aylandi-yu, hech yerda xaridor topilmas.

Ag'yor bikin jon-u ko'ngul ketti qoshimdin,
G'amdek menga bir yori vafodor topilmas.

Ey soqiyi majlis, sol iliktin qadah-u jom –
Kim, ko'zlarining davrida hushyor topilmas.

Dedimki: «Raqibimni qoshingdin ko'tar!» Aytur:
«Bir gul qanikim, olida yuz xor topilmas?»

Ey hajr, ko'tar yosh ila ko'zum qorasini,
Ko'zni netayin, davlati diydor topilmas!

Qil muhr og'iz xotamidin Lutfiyning og'zin –
Kim, dunyada bir mahrami asror topilmas.

* * *

Dilbar eshiginda tursa bo'lmas,
Burqasiz ul oyni ko'rsa bo'lmas.

Qonimni to'kar labi yozuqsiz,
Andin, netayinki, so'rsa bo'lmas.

Bir dam raqib ilgidin qoshinda
Ko'z yoshi mengizli tursa bo'lmas.

El yuziga boqsalar, o'larmen,
Xurshidni, netay, yoshursa bo'lmas.

Ishq o'tida, Lutfiy, yig'lama ko'p,
Suv birla oni o'chursa bo'lmas.

* * *

Dunyanı kezdım-u, zebo, seni-o'q ko'rdım, bas,
Bu malohat bila, haqqo, sen-o'q ko'rdım, bas.

Rost, chun bo'ldi azalning kunı saf-saf arvoħ,
Barchadin husn ila yakto, seni-o'q ko'rdım, bas.

Dilraboliq fanikım, qildin erur nozukroq,
Men, o'shul ilmda dono, seni-o'q ko'rdım, bas.

Andakim, bo'ldi yig'in husn elining majmayıda,
Shamtek anjumanoro seni-o'q ko'rdım, bas.

Yetti iqlim ichida darbadar-u shahr-bashahr
Husn uchun kezdım-u, ra'no, seni-o'q ko'rdım, bas.

Qoldı qil uchi adam bo'lg'oli jon og'zing uchun,
Ulki, bilgay bu muammo, seni-o'q ko'rdım, bas.

Lutfini turgizadir har nafas ul la'li labing,
Ushbu dam ichra, Masiho, seni-o'q ko'rdım, bas.

* * *

Sening shirin labing jondin qolishmas,
Sochingning kufri iymondin qolishmas.

Xito turki aningkim, necha bo'lsa,
Ko'zungning shevasi ondin qolishmas.

Ravomudur meni o'ltursa tashna,
Labingkim, obi hayvondin qolishmas?!

Ko'zumning yoshidin iymangil oxir –
Ki, har bir mavji to'fondin qolishmas.

Eshiking itna kim bo'lsa yo'ldosh,
Oning iqboli sultondin qolishmas.

Yozuqtur, to'kmasun yoshimni la'ling –
Kim, ushbu ol yoshim qondin qolishmas.

Qiling tahsin bila Lutfiyni dilshod –
Ki, rangin she'ri Salmondin qolishmas!

* * *

Dilbar sog'inmag'on jihati bu firoyq emish,
«Ko'zdin yiroq bo'lsa, ko'nguldin yiroq» emish.

Tinmas xayoli keynicha ko'z yoshi qatradin,
Yuz sorina yugurguchi gulgun buroq emish.

Bo'lmas visol birla ko'ngul dard-u dog'i kam,
Ul to'ymag'urda, vah, ne balo ishtiyoq emish!

Qon bog'ladi jigarlari ul g'amza sahmidin,
Chin-u Xitoda nechaki ohu qaroq emish.

«Yo»dek bo'yumni egdi qoshing bori g'am bila –
Kim, egrilikda davri qamar ichra toq emish.

Buzdi qaro cherik bila ko'nglum viloyatin,
Ul ko'zki, turklardek ishi talamoq emish.

Lutfiy, Hirida qolmadi she'ringg'a mushtariy,
Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emish.

* * *

Men xasta qonina kamar sohibjamole bog'lamish,
Qasdi g'aribe aylamish, nozukxayole bog'lamish.

Ilmi nazar ichra ko'zum daryo agar bo'lmaydurur,
Kirpuklar uzra qondin ul manshuri ole bog'lamish.

Chavgoni zulfi dol erur, men go'ytek sargashtamen,
So'fiy o'ziga zarq ila gar vajdu hole bog'lamish.

Devona bo'lsam ne ajab, mundoqki, qoshing toqidin
Quadrat eli xurshid uza mushkin hilole bog'lamish.

Gulkim, sig'inmish g'unchag'a, sendin durur andishasi,
Yuz parda, ya'ni vajah uza beinfi'ole⁴⁵ bog'lamish.

Ul oy xayoli kechgali seli sirishkim mavjiddin,
Kirpuk qomishindin ko'zum har sori sole⁴⁶ bog'lamish.

Mushkin soch-u tor og'zidin Lutfiy kushod istar, vale
Fikri xatodur, angladim, naqshi muhole bog'lamish.

* * *

Ey, sening javr-u jafong mehr-u vafodin yaxshiroq,
Ul sening oltek yuzung bo'lsun yomon ko'zdin yiroq!

Husn elindin toq erur mehrobtek ikki qoshing,
Ko'rmadi yer yuzini kezgan munungtek juft-u toq.

Har yomon so'zi bila o'lturma bizni xor-u zor,
Rasm erur, shohlar vafoliq qulni yaxshi asramoq.

Har sahar «Yo Rabb!»din ilkimni ko'tarsam yig'la-yu,
O'rtanur ohim o'tidin yetti firuzi ravoq.

⁴⁵ Beinfi'ol – xijolatsiz holda, uyalmagan holda.

⁴⁶ Sol – qamush va yog'och kabilardan yasalgan qayiq, jung.

Lutfiy ko'ngli bahridin vafing durin darj ayladi,
Bir zamon necha og'ir kelsa, anga tutgin quloq.

* * *

To jamolingdin tushubturmen yamon ko'zdek yiroq,
Bu tiriklikdin ko'rarman ko'p ajalni yaxshiroq.

Yosh farzandın yugurtub yuz sori har dam ko'zum,
Chun sening izingni topmay chopturur gulgun buroq.

Qoshlaring yodida ko'p mehrobqa qarshu turub,
Fol tuttim, keldi folim goh juft-u, goh toq.

Oh-u vovaylo-vu o'rtanmag-u o'lmak oti – hajr,
Hasrat-u ranj-u ano-vu dard-u g'am oti – firoq.

Yerga kirsam, koshki, chun yetmas ul oyga ilik,
Mushkul ahvole tushubdur: «Yer qatiq-u, ko'k yiroq».

Furqatingda to'kti, shohim, ko'zlarim durri yatim,
Ul adoqingg'a tushub holini aytsa, tut quloq.

Soldi Turkiston eliga Lutfiyini kofir ko'zing,
Ne majoli borki, qilsa rost ohangi Iroq.

* * *

O'turur hijron meni, ul rohati jondin yiroq,
Tushmasun gul mavsumi hech kimsa jonondin yiroq.

Yoz faslikim, erur aysh-u tarabning mavsumi,
Soldi bulbultek meni gardun gulistondin yiroq.

Lolatek bag'rimda dog' erdi, ajabkim, qolmisham
Bir suman, bir yuzi gul sarvi xiromondin yiroq.

Do'stlarning ko'ngli gultek ochilib gulgash taro,
Men munungdek yozida ul aysh-u javlondin yiroq.

Ey ko'ngul, hasratda jon bergil, dag'i vasl istama –
Kim, erur mehr-u vafo ul shohi xo'bondin yiroq.

Ko'rkning bog'inda yig'mish mahvashim gul xirmanini,
Bir nafas ul vajah ila ermasmen afg'ondin yiroq.

Lutfiy zulf-u yuzudin hayrat maqominda tushub,
Bir ajib, olamda qolmish kufr-u iymondin yiroq.

* * *

Ko'ngul to orazingga bo'ldi mushtoq,
Ko'zumda gah qizil guldur, gahi oq.

Meni kuydurgali ul ko'zi o'tluq
Ko'ngulni tosh etar, g'amzani – chaqmoq.

Shakardur ul og'iz yo pista, bilmon,
Dudog'ingdin emastur ayb so'rmoq.

Firoqingda to'koyin yosh naqdin,
Qaro kunlar uchundur oq yirmoq.

Aqiqingni so'rovin desam, aytur:
«Yamon andishaliqni(ng) fikrina boq».

Tilab ko'nglum sening og'zingni, topmas,
Kichik uchun magar o'ynar yoshunmoq.

Sening ishqing kuchindin Lutfiy so'zi
Jamoling chovi⁴⁷ yangliq tutti ofoq.

* * *

Nortek yonoqlaring kibi sham anjumanda yo'q,
Sarvi qadding mengizli sanavbar chamanda yo'q.

Sensiz chamanda, yor, ochilmas ko'ngul, bale,
Noz-u karashma sarv-u gul-u yosumanda yo'q.

⁴⁷ Chov (jov) – ovoza, e'lon, qichqiriq, tovush.

Har dam jamolin(g)g ortar-u, husninga yo‘q nazir,
Mehru vafo darig‘ki, ey umr, sanda yo‘q.

Yuzungni gul chu topmadi, ko‘nglakni qildi chok,
Yusufning idi, oreki, har pirahanda yo‘q.

Jonim chiqar jamolingg‘a qilganda bir nazar,
Dardoki, boqqali yana bir jon badanda yo‘q.

Qo‘yg‘ul xato yo‘lin, dag‘i mushk izardama, sabo,
Chin sochidek chu mushk Xito-yu Xo‘tanda yo‘q.

Tishing durini Lutfiy sifat qilg‘ali beri,
Bir dur qiymati so‘zi yangliq Adanda yo‘q.

* * *

Ohu ko‘zungkim, o‘zida bir dam qarori yo‘q,
Bir go‘sha yo‘qki, dunyada yuz ming shikori yo‘q.

Yo Rabbki, umr xushlig‘idin ne ko‘rub turur,
Bechorayeki, sentek aning g‘amguzori yo‘q.

Maydonga go‘yi husn falak solg‘oli beri,
Kun gardishinda sen kibi chobuksuvori yo‘q.

Ko‘zung g‘izolasi kezar ul lolazor aro –
Kim, ravzaning aning kibi xush lolazori yo‘q.

Xoni visolidin manga tegmas navolaye –
Kim, mavti ahmar otlig' aning intizori yo'q.

Ko'z o'ynatib, ko'ngulni qilur ixtiyorsiz,
Hech kimning oncha o'z ko'zina ixtiyori yo'q.

Ich bo'lg'oli raqib, turur Lutfiyni o'rni – tosh,
Oshiqning iticha ham qoshida e'tibori yo'q.

* * *

Bizga nedin ul ohu qaroqning nazari yo'q?
Shishlansa bag'ir, kuysa yurak ham, xabari yo'q!

Hargiz qadidin topmadi jon mevayi maqsud,
Ul sarv durur, sarvning ore, samari yo'q.

Hayfim kelur ul oyniki, oh o'tina yoqsam,
Siz o'yla sog'inmangkim, ohimning asari yo'q.

Vaslingni duo birla sahar istagay erdim,
Ey voyki, hijron kechasining sahari yo'q.

Lutfiyni sevar deb, meni ko'p quvlamag'ilkim,
Jondin guzari bordur-u, sizdin guzari yo'q!

* * *

Ishq tushsa har ko'ngulga, dard-u g'amdin chora yo'q,
Yetsa chun nashtar jarohatqa, alamdin chora yo'q.

Ey vujud, ul tor og'izdin hech bo'lsang, ne ajab,
Ushbu yo'lda yuruganlarga adamdin chora yo'q.

Bir tutub zulfingni, yuz ming zahr topdim zulmidin,
Ore-orekim, yilon tutqang'a samdin⁴⁸ chora yo'q.

Yuzun(g)ga boqsam, ko'zum yoshin ko'rub, ayb etmagil,
Yoz buluti bo'lsa paydo, gulga namdin chora yo'q.

Men bu savdoda nadomattin ugun sud ko'rmadim –
Kim, tijoratda ziyon qilsa, nadamdin chora yo'q.

Oy yuzungga zulf o'zin solsa, ne tong, bo'lg'ay, vale
Tun uzun bo'lsa nechakim, subhidamdin chora yo'q.

Eshikingdin quvlama, bu Lutfiyning jurmin ko'rub –
Kim, bu bob ichra karimlarga karamdin chora yo'q.

* * *

Zihi sarv ustida yuzung qamardek,
Qani, bir shoxi gul sen siymbardek.

⁴⁸ Sam(m) – zahar. Bu o'rinda «ilon zahari» ma'nosida kelmoqda.

Sening birla jahonnī xush ko‘rarmen,
Keraklisan manga nuri basardek.

Qilur cho‘lpon ko‘zung har dam qironlar,
Anikim, anglasun sohibnazardek.

Xiromon qo‘ryodin chiqmading, oh!
Yoshunmishsan qamish ichra shakardek.

Damim chiqmas, meni o‘ltursa g‘amzang,
Ko‘zung davrunda yo‘q men bexabardek.

Meni bu notavonliq birla zulfung
Jahonda kezdurur payki sahardek.

Ko‘rar haq nurini yuzungda Lutfiy,
Xayoli botil ermas o‘zgardek.

* * *

Boshimg‘a soya sol, ey sarvi cholok –
Ki, guldekdur yoqam hajr ilkidin chok.

Qadam bos ko‘z uza kirpukka boqmay,
Tikan botmas ayoqqa, bo‘lsa namnok.

Ne shirin javhari fardedur og‘zing,
Ki, qilmas aql ani bir zarra idrok.

Jafo-u ishva-u fan ilmi ichra
Ko'zung shogirdidur davron-u aflok.

Jahonda nozanin ko'ptur va lekın,
Seningdek kimda bordur domari pok.

Nazar mendin ayar g'amzang, ajabtur –
Kim, usruklarda⁴⁹ bo'lmas rasmi imsok⁵⁰.

Yiroq solg'uncha, o'ltur Lutfiy qulni,
Masal bordurkim: «O'lmoqdin tirilmoq».

* * *

Ey, ko'zungning shevasi – olamni madhush aylamak,
Zulfung ishi – Chin elini halqa dargo'sh⁵¹ aylamak.

Beling-u og'zing xayoli birla bo'lg'umdur adam –
Kim, bo'lur men qulga fikri bo'su og'ush aylamak.

Ko'nglumuz mundoqkim, o'rgandi sening yoding bila,
To qiyomat kelmagay bizdin faromush aylamak.

Ey ko'ngul, no'sh ayla yuz ming mudda'iy achchiq so'zin –
Kim, kerak ul la'l uchun xunobalar no'sh aylamak.

⁴⁹ Usruk – mast, sarxush.

⁵⁰ Imsok – 1) qizg'onish, tiyish, saqlash; 2) baxillik.

⁵¹ Halqa dargo'sh aylamoq – qul qilmoq, asir olmoq.

Ishqdin man etsa zohid, bo'lmag'il mashg'ul hech –
Kim, erur ahmoq javobi, Lutfiy, xomush aylamak.

* * *

Jon mamlakatin yoqti yonar o'tqa firoqing,
Jon tanda qachon qo'ydi xud ul jodu qaroqing?!

Sen saqla ko'ngul hujrasin, ey yor xayoli,
Bu o'tta yona yonmasun ul pok visoqing.

Oxir, ey falak, nola-yu faryodim eshitkil,
Har necha mening ohim og'ir qildi quloqing.

Ey ko'z, yig'idin tinmag'il-u, bir dam uyuma,
G'aflatdin erur bahri g'am ichra uyumoqing.

Bir jur'anı bu xasta quling yodina qil no'sh,
Ul damki, erur Zuhra-u gul, mutrib-u soqing.

Hijron g'amidin tutti ko'ngulni tab'i muhriq,
Bermodi anga sharbati unnob dudoqing.

Bu Lutfiyni o'lturg'ali g'amzangg'a buyurma,
Taqsir qachon qildi ul ish ichra qaroqing?!

* * *

Firoqingg'a meni soldi qaroqing,
Na hojat, qiynasa emdi firoqing!

Takabburdin bilurman, tegmagay hech,
Mazorim boshig'a qutlug' ayoqing.

Vale muncha umidim borki, bilsang –
Kim, o'lturdi bu qulni ishtiyoying.

Bo'lur jonim suv-u o'ttek tutoshur,
Chu yodimg'a kelur shirin dudoqing.

Na deb hajr ilkidin sendin tilay dod –
Ki hijron birla birdur ittifoqing.

G'am-u hasrat bila boshim oqardi,
Chu bir dam ko'rmadim siymtek saqoying.

Ham ul dam kuydi Lutfiy sham yangliq –
Ki, ko'rdi nogihon nortek yangoying.

* * *

Karashma birla necha jonima jafu qilg'ung,
Nechaga tekru⁵² meni zor-u muftalo qilg'ung?!

⁵² Nechaga tekru – qachongacha, necha martagacha.

Yovushti chiqqali jon intizor dardi bila,
Ne kun, ne vaqt, ne soatg'a bir davo qilg'ung?

Ko'zung jafoda-yu devonaliqtin ushbu ko'ngul
Tama tutarkim, magar oqibat vafo qilg'ung?

Hayot kechti-yu, begonamen visolingdin,
Qachon o'zing bila bu qulni oshno qilg'ung?

Bu ol birlaki, la'ling tabassumin ko'rdum,
Yoshim aqiq-u, chiroyimni qahrabo qilg'ung.

Itob-u jabr-u jafog'a dog'i kerak insof,
Ayitki, necha mening jonima jafo qilg'ung?

Firoq emgakidin Lutfiy qulni o'ldi sog'in,
Aning qizil qonig'a necha ko'z qaro qilg'ung!

* * *

Ey pari ruxsorlar, bizga nigoh aylab o'tung,
Bir nazar birla gadoni podshoh aylab o'tung.

Garchi o'tganda kirarsiz ko'p kishining qonina,
Bu gado ko'ngli uchun muncha gunoh aylab o'tung.

Xorliq haddin oshurmang, chunki izzat yo'ldadur,
Otungiz na'linda bizni xoki roh aylab o'tung.

Har qachon jon bersam, ul qadd-u og'iz yodi bila,
Ey muhiblar, turbatim ustinda oh aylab o'tung.

Har nechakim sizga zaxmattur, zakoti husn uchun
Ilufote Lutfiy sori goh-goh aylab o'tung.

* * *

Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting,
Men xasta gado holini sultonima ayting.

O'rtanmag-u ko'z yoshi-yu o'lmak turur ishim,
Bu qissani ul shamu shabistonima ayting.

Qat-qat yuragim bog'ladi qon, g'uncha mengizlik,
Bu dardi dilimni guli xandonima ayting.

Qon yoshim erur yuz uza yulduz kibi sonsiz,
Ul ko'zlari cho'lpon, mahi tobonima ayting.

Lutfiyi dilafgor tilar hajr elidin dod,
Ahvolini ul begima-yu xonima ayting!

* * *

Necha qo'yg'ay bag'rima dog' ul yuzi mohim mening?
Necha yondurg'ay falakning shamini ohim mening?

Yo'ldin ozdi, nogahon zulfun ko'rub miskin ko'ngul,
Yo'llar egri, tun uzun, netgay bu gumrohim mening!

Xush yarashur sarvtek qaddi uza siym olmasi,
Ohkim, yetmas anga bu dastu ko'tohim mening.

Emdikim, tuproq bo'lmishdur eshikingda tanim,
Qaydadur hosidki, ko'rgay davlat-u johim mening!

Charx urar xazro surodiqta⁵³ falak shohidlari,
Xaymadin bir to'n-la chiqsa mohi xirgohim mening.

Nolishim berdi eshigi itlarga dardi sar,
Afv qilg'aylar karam birla bu berohim mening.

Bo'ldi yakto dur tishi vasfinda Lutfiyning so'zi,
Ne ajab, tutsa qulog'ini anga shohim mening!

* * *

Necha kuygay bu yonar o'tqa zaif jonim mening?
Qolmadi sabr etgali bir zarra imkonim mening!

Kes boshimni go'ytek, xayling adoqi ichra sol,
Qo'yma sargardon meni, ey zulfi chavgonim mening.

⁵³ Surodiq – chodir, xayma, o'tov. Xazro surodiq – yashil chodir.

Chun kishining qonin, ayturlarki, yotmas, ey ajab,
La'lingizda ne uchun mundoq yotur qonim mening?

Maqdamingg'a sochqoli yuzdin o'gun yo'q oltunum,
Bor vale ko'z bahrida ko'p durri g'altonim mening.

Men gadoni notavonlig' birla o'lturdi ko'zung,
Kimga bo'lg'ay, oxir, ey sulton, bu tovonim mening?

Oy-u kun yulduz kibi yerga o'zin solmoq tilar,
Chiqsa xirgahtin biror ul mohi tobonim mening.

Jon borincha qilmag'ay Lutfiy fig'on bedoddin,
Dodkim bersun, qilur chun javr sultonim mening?!

* * *

Ey sihi⁵⁴ qad, bandani hajr ilkidin ozod qil,
Qayg'uluq ko'nglumni vasling birla bir dam shod qil.

Jonima har dam kelib, aytur firoqing elchisi –
Kim: «Ravon tan mulkidin chiqmoqqa iste'dod qil».

Tog'dek oshiqni kuydurdung bu Shirinlik bila,
Mundin ortuqroq meni bir yo'li sen Farhod qil.

⁵⁴ Sahi (sihi) – to'g'n, barvasta, tik. Sihi qad – tik qomat, to'g'n qadd-u qomat.

Qomatingning qullig'inda yosh edi, ulg'aydi sarv,
Boshi titrar, emdi xijlattin ani ozod qil.

Holikim jondin asar bordur, sog'ing'il bandani,
Men chu o'lsam, xoh unutg'il anda, xohi yod qil.

Gul yuzung qildi chu bulbuldek ko'ngulni beqaror,
Osig' etmas, nechakim ayturlar: «Oz faryod qil».

Nechakim, hukming erur, shohim, ravon Lutfiy uza,
Chun har ish so'rug'usi, albatta, adl-u dod qil⁵⁵.

* * *

Ey oyati rahmat yuzungiz sha'nida nozil⁵⁶,
Bo'lg'ay qocharing birla qachon mehr muqobil.

Sizdin kerak o'rgansa pari odamiliqni,
Yusuf dag'i ta'lim kerak olsa shamoyil.

Horut ko'zung sehrini ko'rdi, xijil o'ldi,
Andin yoshunub, ixtiyor etti chahi Bobil.

⁵⁵ Baytda ishorat qilingan oyatlar: Takosur surasi, 8-oyat, ma'nosi: «**So'ng yana qasamki, u kun (sizlar dunyoda berilgan) ne'matlardan so'ralgaysizlar.** Luqmon surasi, 36-oyat, ma'nosi: «**O'zingiz bilmagan narsaga ergash-mang! Chunki quloq, ko'z va ko'ngil – bularning har biri o'shandan (siz ergashgan narsadan) savol qilinguvchidir.**»

⁵⁶ Rahmat oyati quyidagi oyatdir: Anbiyo surasi, 107-oyati, ma'nosi: «(Ey Muhammad!) **Biz sizni olamlarga faqatgina rahmat qilib yubordik.**» Saba' surasi, 28-oyati, ma'nosi: «(Ey Rasulim!) **Biz sizni butun insoniyatga faqat xushxabar beruvchi va ogohlantiruvchi (Payg'ambar) qilib yubordik. Lekin insonlarning ko'plari (buni) bilmaslar.**»

Yolg'uz men emasmenmu sening birla griftor?
Husningga turur hur-u malak jon bila moyil⁵⁷.

Ul sochmudur subha yaqin yohud uzun tun,
Yo g'oliyadin dil-u ko'ngullarga salosil?

Jon mus'hafi si pora⁵⁸ bo'lur qayg'uda har dam,
Yengil iliki bo'ynina to bo'ldi hamoyil.

Hajringda tilar har dam ajal Lutfiyi miskin.
Sensiz kechuran umrdin, ey do'st, ne hosil?

* * *

Ey sarvi sihi, qomatin(g)ga jon bila moyil,
Ne xush yarashur qaddinga ush shakl-u shamoyil.

Zulfungmudur ul yo mening ohim tutunimu?
Yo anbari soromudur egningda hamoyil?

Gar ko'rsa edi yuzung uza zulfi musalsal,
Layli demas erdi arabi shohi qaboyil.

Man etma, ko'zum yoshi eshikingda sochulsun,
Mahrum karim eshikidin yonmadi soyil.

⁵⁷ Baytda ishorat qilingan oyat: Tahrir surasi, 4-oyati, ma'nosi: «...Agar sizlar u (Payg'ambar)ga qarshi bir-biringizga suyanchiq bo'lsangizlar, shubhasiz, Alloh O'zi uning do'sti va madadkoridir, Jabroil ham, solih mo'minlar ham (uning yordamchilardir). Undan keyin farishtalar ham unga suyanchiq (yordamchi)dir».

⁵⁸ Si pora – o'tiz pora.

Fozil erur ul zulf-u yuzung sunbul-u guldin,
Bermish sanga Haq fazli bilan barcha fazoyil.

Lutfiy ko'rar erdi xud ul oy yuzuni bir kun,
Baxti bad-u tole orada bo'lmasa hoyil.

* * *

Ey sanavbar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il,
Shavq o'tinda men gadoni asru biryon qilmag'il.

Elga ko'p in'om etarsan dam-badam dashnomni,
Qadr bilmaslarg'a oxir muncha ehson qilmag'il.

Shart qildingkim: «Seni men o'lturay!» – o'lturmading,
Chunki yetmassan so'zangga, ahd-u paymon qilmag'il.

Andakim, bo'ldum xabarsiz, dog' qo'ydung jonima,
Emdi bilmasman dema, o'zingni nodon qilmag'il.

O'zgarlar sori boqib, g'amza o'qini otmag'il,
Yuragimni dam-badam hasrat bila qon qilmag'il.

«Sen meni sevdung», – debon ne yozg'urursan bandani,
Gar kerakmas oshiq, avval elni hayron qilmag'il.

Lutfiyi misinga ko'rguz soidingni lutf ila,
Bu gadodin nuqrani yengingda pinhon qilmag'il.

* * *

Xo'blar jafosi ilkidin har necha biryondur ko'ngul,
Yonmas alarning mehridin, vah, ne ajab, jondur ko'ngul!

«Haddingni bilmayin meni sevdin», – debon yozg'urmag'il,
Sen ham bilursan, ey begim, bir erkli sultondur ko'ngul.

Ulkim, ko'ngul qildi menga sen tosh bag'irliq yor uchun,
Mo'ming'a kofir qilmag'ay, ya'ni musulmondur ko'ngul.

Sentek vafosiz oydin o'z toleyin yillar ko'rub,
Mehr-u muhabbat ko'z tutar, ko'rkim, ne nodondir ko'ngul!

Bir lahza sensiz sabr yo'q, oylarda bir diydor ham,
Ortar damo-dam shavq o'ti ishimda, hayrondur ko'ngul.

Ko'nglum qaro yerga necha o'ltursun ul zulf ilkidin,
Jam ayla nozuk vajah ilakim, bas, parishondur ko'ngul.

La'li labing so'rmaslig'i yetkurdi jong'a Lutfiyni,
So'z birla ko'rguz lutfkim, yo'q qayg'udin qondur ko'ngul.

* * *

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Meni yozg'urma: «Sevan», – debki, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Borma derlar eshiki sori damo-dam, netayin?!
Ko'p taqozo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada
Jonni savdo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Dushman-u do'st orasinda meni, g'ofilni mudom
Besar-u po qiludurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

O'zgin ko'rmaki, ko'zung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

* * *

Oy yuzungdin yetti kishvar xo'blarig'a infi'ol⁵⁹,
Dilrabolig' fanni husnung davrida topti kamol.

Ul og'iz mehridin o'zga kelmagay mendin javob,
Andakim, mahshar kuni har zarradin bo'lg'ay savol.

⁵⁹ Infi'ol - xijolat, uyalish, biror narsadan ta'sirlanish.

Gar ilindim zulfig'a, ko'rmang meni oshuftadin,
Donaxo'r etti tuzoqqa bizni ul la'l uzra xol.

Ey munajjim, yor oti birla meni takbir qil,
Otim oti birla yondoshsun, menga xud yo'q visol.

Kun yuzung davrinda o'rtonmay chiqar, ne vajah ila,
Angladimkim, tezlikdin topqusi oxir zavol.

G'aflat ahlidin musallam yo'qturur da'viyi mehr,
Bormag'il uyqug'a, ey ko'z, sen xayolidin uyol!

Lutfiy ko'rmas ul yuzung, ko'rsa dag'i bexud bo'lur,
Dushmaningg'a tushmasun, ey do'st, yo Rabb, ushbu hol.

* * *

Nigoro, sensizin mandin ne hosil?
Agar jon bo'lmasa, tandin ne hosil?

Chu guldin rang emas, bulbulg'a bo'ye,
Bahor-u bog'-u gulshandin ne hosil?

Jafo-yu ishvalarni fan tutubsen,
Muningtek ishva-yu fandin ne hosil?

Kishikim, yo'qturur mehr-u vafosi,
Agar xurshidtur, andin ne hosil?

Bu turluk husn ila Lutfiy qulungg'a
Inoyat qilmasang, sandin ne hosil?

* * *

Ey, latofat bo'stoni ichra sarvi xushxirom,
Topti ruxsoring gulindin husn bog'i ehtirom.

Oy yuzungni kunga o'xshatsam, muvajjahdur⁶⁰ dalil,
Obi hayvon desam og'zingni, erur molokalom⁶¹.

Zarvaraqték bo'lmisham siymin saqoqing shavqidin,
Ko'rki, ne zard-u nazor etti meni savdoyi xom.

Qomating – To'biy niholidur, labing – Kavsar suvi,
Yuzung – ul huri bihishtiy, tutti bu oliy maqom.

Bo'lsa do'zaxta xayoling, tanga kuymaklik halol,
Bo'lmasa jannatta yoding, jong'a osoyish harom.

Garchi marhumdur raqibing, Haqdin uzmasmen umid,
Berdi kofirning murodin, bermagaymu bizga kom?!

Vaz-zuho, Val-layl⁶² o'qurmen zulf-u yuzungni ko'rub,
Kechti Lutfiy umri-yu, virdi erur bu subh-u shom.

⁶⁰ Muvajjah – maqbul, yaxshi, yoqimli.

⁶¹ Molokalom – so'zsiz, qaytarilmaydigan, rad etilmaydigan. («Gap yo'ql», deganga o'xshash ifoda.)

⁶² Vaz-zuho («Choshtgohga qasam»), Val-layl («Kechaga qasam») – Qur'oni kanm suralari.

* * *

Maqsudg'a tekurmay ul gulandom,
Oshiqni qilur jahonda badnom.

Yuz ko'rguzubon, tilakni bermas,
Chun donasi yo'q – netar qurub dom?

«Siymték yangoqing, – dedim – o'parmen»,
Aytur: «Tamaying erur bari xom».

Jon qasdi uchun kelur damo-dam,
Kelmas menga rahm uchun dilorom.

Kim zulf-u yuzini ko'rdi, aydi:
«Bir-birga qotildi kufr-u islom».

Jayron, ne deb aytayin ko'zungni?
Inson ila chun mudom erur rom.

Jondin ko'ngul uzgin emdi, Lutfiy,
Chun hosili yo'q – turur saranjom.

* * *

Bihamdillohki, keldi dilraboyim,
Azizon, ko'zi cho'lpon, to'lun oyim.

Sevar jonim, pari-paykar habibim,
Visoli – rohatim, hajri – baloyim.

Yuzi gul, sochi sunbul, bag'ri toshim,
Muhoblarni unutqan bevafoyim.

Murodim davlati, baxtim latifi,
So'zi shirin – nigori jonfizoyim.

Yana tan sori borg'on ruh yondi,
Buyon kelgach safardin mahliqoyim.

Qonimni hajr ila to'kti yozuqsiz,
Dudog'ingdin tilarmen xun bahoyim.

Farah qil, Lutfiykim, dildor keldi,
Ijobat bo'ldi hazratta duoyim.

* * *

Ey jon chamani ichra bo'yi sarvi ravonim,
Vola erur ul suvratin(g)ga ruhi ravonim.

Tun kecha siz(n)ing kun yuzungiz yodi ichinda
Kuydurdi falak gumbazini oh-u fig'onim.

Yuz fitna bila ko'zlaring, ey dilbari ra'no,
Bir damda kishi ko'rmadikim, to'krmadi qonim.

To'la etagim la'l-u guhar – barcha bahosiz,
Sarrafmen-u, ikki ko'zum bo'ldi do'konim.

Bag'rim qonidin lola bitib tuprog'im uzra,
Bir-bir o'qug'ay, qolmasa hech nom-u nishonim.

Sen bor, ey raqib, jonim erur ushbu ev ichra,
Men ketman eshikindin, agar chiqmasa jonim.

Lutfiy joni har nechakim hasrat bila bordi,
Sen toza-yu xush qolg'in, ayo, sarvi ravonim!

* * *

Jamoling shamina parvona keldim,
Firoq o'tina yona-yona keldim.

Firoqing zulmidin dod istamakka,
Seningtek nozanin sultona keldim.

Pari ruxsora: «Sentek dilraboni
Ko'royin», – deb meni devona keldim.

Labingdin so'rg'ali keldim tabuqda,
Xizrtek chashmayi hayvona keldim.

Yuzungning hajridin jonimg'a yettim,
Aning uchun seningtek jona keldim.

Qoshing yosin ko'rub, iyd oyidur deb,
Qoshingda Lutfiydek qurbona keldim.

* * *

Kelginki, firoqing o'tida qolmadi holim,
Bu o'tni o'chur vasl ila, ey obi zulolim!

Jon irnima yetdi-yu, raqiblar ilkidin,
So'zlashgali yo'qtur, netayin, hech majolim.

Bir kunki, viroq tushtum o'shal oy yuzungdin,
Hijron tuni jon suhbatidin tutti malolim.

Yordın, ey raqib, bizni necha boshqa tutarsen,
Jon bersam viroqlik bila, bo'ynungda vubolim.

Yor o'lturadur Lutfiyini-yu, chorasi yo'qtur.
Ko'rgulik kishi darmonsiz erur, tushtisa zolim.

* * *

Yo Rabb, ne ajab yori jafokora yo'luqtum,
Ko'zi-yu qoshi jodu-vu makkora yo'luqtum.

Shukronag'a jon berdim, o'shul chehrani ko'rgach,
Haqdin ne tilay o'zgaki, diydora yo'luqtum.

Ne tole ila men tilayin mehr ul oydin,
Chun bo'yla jafochi buti ayyora yo'luqtum.

Hech yerda qarorim yo'q edi ko'vida turdum,
Jannatda muqim o'ldum-u, dildora yo'luqtum.

Yor istar edim, uchradi nogah raqibe,
Gulni tiladim, Lutfiy, vale xora yo'luqtum.

* * *

Ey jafo dog'i bila ko'nglumni afgor aylagan,
Gul yangoqing shavqidur yuz, ko'zni gulzor aylagan!

Javhari fard og'zingiztek xurdabinlar zehnina
Solmadi shirin xayole, yo'qni ul bor aylagan.

Bir nafasda o'lgay erdim furqatingning dardidin,
Vasl umididur menga o'lmakni dushvor aylagan.

Aql-u dini bo'lmasun dedi meni bechorada,
Ul qaroqchi ko'zlaringni mast-u ayyor aylagan.

Men falakning gardishidin bo'lmamishman notavon,
Yorning sevmasligidur jonima kor aylagan.

Jon-u dil bordi adam sori, sening og'zing uchun,
Ul og'iz fikridur elga dunyani tor aylagan.

O'zgin qilmam shikoyatkim, azizim ko'zida,
O'tga tushkur bu ko'nguldur Lutfiyni xor aylagan!

* * *

Ul oykim, aning mehrida mashhuri jahonman,
Afsuski, bilmaski, ne chog'liq nigoronman.

Faryodima baxt uyg'onib, ey voyki, yetmas,
Har nechaki men boshtin oyoq oh-u fig'onman.

Shakkar dudog'ingdin manga hasrat tegar, onjoq,
Shirin magar ul bo'ldi-yu, Farhodi zamonman.

Dildor jafu ustida-yu, men qonu to'lg'on
Ko'z yoshi kibi ko'yidakim obi ravonman.

Sunbul sochini ko'rgali guldek yuzi uzra,
Savsan bikin avsofi bila rutbi lisonman.

Ko'nglum ketamas, har nechakim ko'rsa jafoni,
Bu sabr-u tahammul bila, bilmonki, ne jonman.

«Oshiq nega bo'ldung?», – dema Lutfiyg'a, yuzun ko'r,
Bu vaji ayon birla ne muhtoji bayonman?

* * *

To ko'nglum urdi dam yuzung oyi havosidin,
Har subhidam yoruqluq olur kun safosidin.

Bir dam nabotning boshidin ketmadi yig'och,
To bo'lmadi tamom so'z irning hayosidin.

Hech kim jahonda ko'rmadi o'q-yoyni qap-qaro,
Hayrattadurmen ul ko'z-u qoshing qarosidin.

Qolsam balog'a ko'nglum elindin, g'arib emas –
Kim, jon salomat eltti ko'ngulning balosidin.

Har necha husn kishvarining podshohisen,
Andisha qil bu Lutfiy gadoning duosidin.

* * *

Qadd-u og'zingga boqsam, oh derman,
Seni ko'rgan sayin: «Alloh», – derman.

Tilar ko'nglum seni olamda-yu, bas,
Bu nisbattin seni dilxoh derman.

Mening haddim emaskim, istasa vasl,
«Ko'z uchi birla boq goh-goh», – derman.

Qusuri tab'din derman seni sarv,
Erur ul noravo, bir oh derman.

Eragin(g)ga kishining ilki yetmas,
Seni bu vajh ila men moh derman.

«Sening qadding bila, nozik yururda,
Erur o'zga nima hamroh?» – derman.

Jamoling Lutfiy so'zin qildi rangin,
Sening husninga: «Shay'anlilloh», – derman.

* * *

Latofat qiblassi olamda sensen,
Pari yuzluk bani odamda sensen.

Ko'runursan sen-o'q ko'zumda-yu, bas,
Bale, yolg'uz hamin olamda sensen.

Masih-u Xizr edi dam birla jonbaxsh,
Alar ul damda-yu, bu damda – sensen.

Qaroqchi bo'lmasang, ey yor ko'zi,
Nag'-u payvasta har bir xamda sensen?

Kanorin Lutfi topmog'liq muhol ul,
Muningdekkim muhiti g'amda sensen.

* * *

Ayo dilbar, vafo qilmasmusen sen?
Bu dardinga davo qilmasmusen sen?

Qilich birla, judo bo'lg'uncha mendin,
Boshim tandin judo qilmasmusen sen?

Agar mehr-u vafoni hayf ko'rsang,
Biror javr-u jafo qilmasmusen sen?

Yoqildi shavq o'tinda jonim emdi,
Qilursen rahm, yo qilmasmusen sen?

Yozuqsiz bandadin gar qoldi ko'nglung,
Xudoy uchun safo qilmasmusen sen?

Ravo mundoq ko'rarsan, sensiz o'lsam,
Tilokimni ravo qilmasmusen sen?

Ilik gar tutmasang Lutfiy qulungg'a,
Yiroqdin marhabo qilmasmusen sen?

* * *

Meni og'zing uchun shaydo qilibsän,
Manga yo'q qayg'uni paydo qilibsän.

Sening yoyingni hech kim torta olmas,
Muningtekkim, qoshingni yo qilibsani.

Yado qilgon kibi ko'z jodusindin,
Ko'zumning yomg'urun daryo qilibsani.

Kirib ko'zdin ko'ngulga, oni tortib,
Aliftek jon ichinda jo qilibsani.

Yuzungni oy dedim, astag'firulloh,
Magar aqlimni sen yag'mo qilibsani.

Vafo qilmoqqa qo'yimas chun seni husn,
Jafu birla meni rasvo qilibsani.

To'kar g'amzang damo-dam Lutfiy qonin,
Magar ko'z uchidin imo qilibsani.

* * *

Dilbaro, sindurma ahd-u, yonmag'il miysoqdin,
Pardada tutma yuzungni oshiqi mushtoqdin.

Husn davrinda jafodin o'zga yo'qtur san'ating,
Xalqdin yo'q fikring, iymanmasmusan Xalloqdin?

Bir nafas ma'shuq ila oshiqni qo'yimas shodmon,
Ne tilar, yo Rabb, sipehri kinavar ushshoqdin?

Andakim, mehrob qoshing tuzdi me'mori qazo,
Ko'nglumiz qandilini eltti-yu, osti toqdin.

Ul sening kofur yangliq orazingni oy degay,
Ul hargiz ilg'amas bo'lsa qaroni oqdin.

Lof urur zulfung bila mushkda bordur xato,
Har kishining aslini bilsa bo'lur axloqdin.

To yuzungning vasfini Lutfiy bitti, daftari –
Bo'ldi rangin-u, nasimi gul kelur avroqdin.

* * *

Ey, turfa pari odamingning jonimudursen?
Yo ikki yorug' ko'zlari insonimudursen?

Boqsam, bosh-oyoq jisming erur mahzi latofat,
Yo sen malak-u ulviyi ruhonimudursen?

Yo jodumudurkim, ko'ngul olding o'qub afsun,
Bu yuz ila yo oyati Rabbonimudursen?

Yo lutf-u zarofat bila yo'g'rildimu zoting,
Yo xulq-u karim ma'dani-yu konimudursen?

Lutfiy senga qul bo'ldi, ayo husn eli shohi,
Sen bir ayt, aning shohi-yu sultonimudursen?

* * *

Qon bo'ldi ko'ngul firoqingizdin,
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdin.

Din-u dil-u aql bo'ldi yag'mo,
Jon olg'uchi ul qaroqingizdin.

O'qdek bo'yumiz egildi yodek,
Ul fitnalik ikki toqingizdin.

Suv bo'ldi jonim, vale damo-dam
O'tka yoqilur dudoqingizdin.

Oltin kibi chehra bo'ldi sorig',
Ul siym bikin saqoqingizdin.

Ko'rsam kerak oy-u kun bulutsiz,
Sochni ko'toring yangoqingizdin.

Bu Lutfiy xastani so'rungkim,
Bechora o'lar firoqingizdin.

* * *

Necha jonima jafu qilursen?
Vaqt o'ldi, agar vafo qilursen.

Jonim chiqadur firoq o'undin,
Dardimg'a qachon davo qilursen?

O'ltur meni noz ila ravodur,
Gar hojatimi ravo qilursen.

Ul zulfni solma yuzung uzra,
Kim, vuz bila ming balo qilursen.

Bo'ynungda qonimki, bızni, ey ko'z,
Xo'blar bila oshno qilursen.

Jondin ilkingni, Lutfiy, yuvg'il,
Chun ishq bila marhabo qilursen.

* * *

Ey, husn-u jamol ahli xodimlar-u sulton – sen,
Inson sifatı birla sen surati Rahmonsın.

Gulbarg tutur to'ning, bilmay, anı tan derlar,
Tan ne tilasun sendin, sen boshın oyoq jonsın.

Husn ichra sharıng yo'q, yuz hıjjati ravshandur
Ul da'viyi vahdatqa, bu vıjh ila burhonsın.

Qonmam, nechakim boqsam husnunga sening, billoh,
Suvtek ichayın dermankim, chashmayı hayvonsın.

Burqani ko'tar, Lutfiy yuzungni ko'rub o'lsun,
Hasrat bila o'rtandi, qil ishini bir yon sen.

* * *

Oy yuzungning husnikim, ruh anglamas kayfiyatini,
Qildi isbot «Ahsanut-taqvim»ning⁶³ mohiyatini.

Oraz-u la'ling manga ortturdi savdo zahmati,
Vahki, baxtim o'zga qildi gulshakar xosiyatini.

Nechakim bordur qamar davrunda yuz ming tafriqa,
Ko'rdum ush zulfungda men chindin ko'ngul jamiyatini.

Oy qo'tonlab ajz uchun bo'ldi hisori tun kecha,
Tutti husnunga musallam dunyaning mohiyatini.

Jon ajaldin keldi ishqing bodasindin bexabar,
Bu qadahdin totmag'an bilmas aning kayfiyatini.

Chun tatavvul erdi majmu' elga zulfung niyati,
Tushtu yuzungdin qarorb, ko'r parishon niyatini.

Dunyaning zobolaridin sizga qul bo'lg'on uchun,
Bildilar ahli basorat Lutfiyning ahliyatini.

⁶³ Ahsanut-taqvim – eng go'zal shakl-shamoyil. Tin surasining, 1-4-oyatlarga ishora, ma'nosi: «**Anjirga qasam va zaytungga qasam, Sino tog'iga va ushbu omonlik shahri** (bo'lmish Makka)ga qasamki, darhaqiqat, Biz insonni eng go'zal shakl-shamoyilda yaratdik».

* * *

Ey orazi bargi gul-u, ey qomati sarvi chaman,
Ravshan sening yuzung bikin topmadi bir sham anjuman.

Yuz uza zulfungni solib bo'stonda yurusang biror,
Sunbul mengizlik to'lg'onur o'z-o'zicha vard-u⁶⁴ suman.

La'lingkim, ul xotam durur angushtarintek og'zin(g)ga,
Oning kibi yaxshi aqiq ko'rmodi umrida Yaman.

Ko'nglum tilar jon naqdinı sarf etsa yuzung vajhina,
Bu vajh min kullul-vujuh, ko'rдум, erur vajhi – hasan.

So'rдум labingdin: «Yuz balo jonimg'a solg'on sanmusan?»
Sekredi olingda qoshing, ya'ni «Ul qilg'uchi – man».

G'amza bila aytur ko'zung, ey, egrı o'ltur, so'yla rost?
Mendın ugun kimdurkim ul, bilg'ay bu san'at yo bu fan?

Bu Lutfiy ko'ngli orzular zulfung javorında o'rin,
Har necha ul kufr elidur, «Iymondin ul hubbul-vatan»⁶⁵.

* * *

Boqmas manga jonona, ajab holat emasmu?
Bo'ldi yana begona, ajab holat emasmu?

⁶⁴ Vard – atirgul.

⁶⁵ «Iymondin ul hubbul-vatan» – «Vatanni sevmoq iymondandın».

Bexudlig'-u savdo bila qildi meni mashhur,
Ul ko'zlari mastona, ajab holat emasmu?

Qil uchig'a, ey voyki, yetmas mening ilgim,
Zulfini tutar shona, ajab holat emasmu?

Ul huri pari chehra qarab ko'z uchi birla,
Qildi meni devona, ajab holat emasmu?

To'yg'uncha ko'zum ko'rmas, ekach tushta xayoling,
Bo'ldi so'zum afsona, ajab holat emasmu?

Bir kun meni giryon elina tushmadi hargiz
Ul gavhari yakdona, ajab holat emasmu?

Usruk ko'z-u la'li meni o'lturgali, Lutfiy,
Bo'lmish yeri mayxona, ajab holat emasmu?

Yo Rabbki, ne mahliqo bo'lurmu?
Ne chehra dag'i safo bo'lurmu?

Yo qop-qora ko'rmadim jahonda,
Olinda ne turfa yo bo'lurmu?

Guldek qizarur yuzi nazardin,
Hay-hay, ne balo, hayo bo'lurmu?

Devona ko'ngul so'zumga kirmas,
Ayb aylamakim, balo bo'lurmu?

Ishqingda agarchi jong'a yetdim,
So'rmaski, ne muftalo bo'lurmu?

Tut ko'rkni besh kuni g'animat –
Kim, olami bevafo bo'lurmu?

Haq nurini ko'r yuzunda, Lutfiy –
Kim, oynayi Xudo bo'lurmu?

* * *

Ey, sening la'li labing javharina jon sadqa,
Shakkar og'zinga dog'i chashmayi hayvon sadqa.

Kecha tunglukka kelib, evruladur boshingdin,
Tal'atin(g)ga bo'lur o'xshar, mahi tobon sadqa.

Men gado qulg'a ko'zung qilsa nazar, yaxshi erur,
Notavondin tegar elga chu farovon sadqa.

Kun tutub tosi falak chorsuyi husnungda,
Evrulur otqali davron bila xandon sadqa.

Ul og'izdin manga bir qatla dog'i tegmadi hech,
Tor uchun havsalasi qilmadi ehson sadqa.

Sen chaman sahnida-yu chirka bila sarv-u chinor,
Oyoq ostida sanga bo'lg'ali har yon sadqa.

Lutfiyi(ng) niyati uldurki, ravon qilsa o'zin,
Senga parvonadek, ey shami shabiston, sadqa.

* * *

Ne balo, husn-u malohat berdi Subhon yuziga –
Kim, erur ins-u malak jon birla hayron yuziga.

Xalqa dargo'sh o'ldi-yu yuzun tutar ul rux sari,
Go'iy oshiq bo'lubtur durri g'alton yuziga.

Ul pari yuzun ko'rub, jon hazor ixlos ila
Peshkash qildim, ko'ngul qo'ydim ul jon yuziga.

Yuz xatosiz qonini gar to'ksa ko'zi hashrda,
Hech kimarsa kelmagay ul nomusulmon yuziga.

Lutfiy gar oshiq bo'lub, qildi fido jon, ne ajab,
Ko'rsa gar kofir ani, kelturgay iymon yuziga.

* * *

Yuzungning orzusi-yu turrang intizori bila,
Boshim oqordi, vale ko'nglum ul qarori bila.

Mudom suv tilagondek biaynihi maxmur,
Qonimg'a tashna bo'lubsan ko'zing xumori bila.

Shamol mulkiga sen podshoh bo'lg'ali, gul
Tikan tashib, kechurur kun hazor xori bila.

Eshiking itidin ayrilg'onimni tut ma'zur,
Hamisha kimni falak qo'ydi e'tibori bila.

Malomat ahlidin, ey porso, hazar qilako'r –
Ki, husn aqlni qo'ymas o'z ixtiyori bila.

Chu vasl ravzasidin ko'rmadim gule hargiz,
Necha tutar meni bulbulning oh-u zori bila.

Ko'ngulni olma yangoqingdin uzmadi oshiq,
Agarchi topmadi behbud hajr nori bila.

Agarchi umr asosini buzdi seli firoq,
Ko'ngul turubtur o'shul ahdi ustuvori bila.

Visol va'dasi ermas vafo uchun, bildim,
Kerakki, Lutfiyni o'ltursa intuzori bila.

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma,

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a, eshikingdin
Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko'zung ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzungga ko'z solg'ali o'zga kishi birla
Yo'qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

* * *

Ey, qadding to'biyi jannat haddi gulgun ustina,
Ko'rmadi davron seningdek oy gardun ustina.

Bo'ldi so'zum nozik-u ko'nglum xush-u tab'im latif,
Har qachon soldim nazar ul shakli mavzun ustina.

Sarv aningdek qomating hayronidurkim, boshiga
Qildi qushlar oshyon, andoqki Majnun ustina.

Har dam, ey ko'z yoshi, yuz ko'rmay, meni fosh aylama,
Davlatimdin ag'nading yillar chu oltun ustina.

Anbarin qoshing xaminda xoldek ko'z mardumi,
Mushki tardin nuqtayi sulsi durur «nun» ustina.

Necha cheksun xo'blar ilgindin jafo, miskin ko'ngul,
Muncha ofat kelturur bir qatrayi xun ustina.

Gar vatan Lutfiy ko'zunda tutmading, yo'qtur ajab,
Ev qo'pormog'liq erur dushvor Jayhun ustina.

* * *

Sunbulingni ko'rgali guldek ruxi ol ustina,
Boshni go'y etmishmen ul chavgon uchun xol ustina.

Ey quyosh yuzluk, saodatdur humoyun ko'zlaring,
Bu gado sultonliq istar soyaye sol ustina.

Chun xayolingning kechar yeri ko'zum daryosidur,
Kirpukimdin bog'ladim ul vajah ila sol ustina.

Go'shalarda qon qilur erdi ko'zung, oldin qoshing
Chin cherikin chekti ul joduyi qattol ustina.

Ey chibin, ul damki, irni sori parvoz aylading,
Bizni yetkursang ne bo'lg'ay, eltubon ol ustina.

Ul tani siymın uza yel teksa, titrar ko'nglaki,
Titragay andoqki mudxil⁶⁶ ganj ila mol ustina.

Bilmagay ul til og'izdin, hech yo'q qayg'u bila,
Lutfiyning umri tugandı qiyil ila qol⁶⁷ ustina.

* * *

Yolg'uz gul emas lola yuzungdin araq ichra,
Kun ne ko'runur hinduyi zulfungda haq ichra.

Ne yuz bila oy yuzunga o'xshatsun o'zini,
Ul yuzi chechaklikki, qolibtur bahaq⁶⁸ ichra.

Shirinlig'idın kog'azi bir-birga yopushti,
Irning sifatın qaydaki, yozdim varaq ichra.

Gulshanga nazar qilki, seni ko'rmak uchun gul
Oltin keturur o'rtada har kun tabaq ichra.

Ul la'li labing birla tushing turfa tushubtur –
Kim, ko'rgalı bor shakli Surayyo shafaq ichra.

Takror qilur vasfi qadding sarv, oning uchun
Ko'p tebranur andoqki kishilar sabaq ichra.

⁶⁶ Mudxil – baxil, xasis, laim.

⁶⁷ Qiyil ila qol (qiyil-u qol) – gap va so'z, (gap-so'z).

⁶⁸ Bahaq – ko'pincha yoshlarning anjomida paydo bo'ladigan bir turli illat, kasallik («G'iyos ul-lug'ob»).

O'z-o'ziga ishqingni balo qilmadi, Lutfiy,
Yo'q haddi, vale chora nedur hukmi Haq ichra?!

* * *

G'arq o'ldi yuzung xijlatidin gul araq ichra,
Sarg'ardi quyosh, boqti chu ul sun'i Haq ichra.

Hayratqa qolibdurmen o'shul engdagi mengdin,
Xat yo'q, ne tilar nuqta burun ul varaq ichra!

Nur yuzung uza tor og'iz-u ko'z, dog'i irning,
Pista bila bodom, shakardur tabaq ichra.

Mafhum malomatqa yuzung bosabaq o'ldi,
Yo'q bahs bu mafhum o'shul mosabaq ichra.

O't burjidadur oy yuzung aksi ko'ngulda,
Ko'zumda qoshing shakli – hiloli shafaq ichra.

Darveza⁶⁹ qilur kun ko'zidin nursiz, ore,
Ul biri giriftori diq-u⁷⁰, biri daq⁷¹ ichra.

⁶⁹ Darveza (daryo'za) – gadoylik, tilanchilik, faqirlik.

⁷⁰ Diq (diqq) – 1) nozik, ingichka, ozgina; 2) kishini ozdinb ingichka qiladigan bir kasallik nomi («G'iyos ul-lug'ot»).

⁷¹ Daq – 1) gadoylik, tilanchilik; 2) jun kiyimning bir turi; 3) birovning ishiga e'tiroz qilish va aralashish; 4) bir turli nafis mato («G'iyos ul-lug'ot »).

Ul zulf savodini⁷² ko'rub madrasa ahli,
Sahv etti bari Lutfiy kibi har sabaq ichra.

* * *

Agar sen bo'lmasang guldek chamanda,
Kishi netgay o'shal bayt ul-hazanda?

Falak yulduz kibi xo'blarni yig'sa,
Yuzung bo'lg'ay quyosh ul anjumanda.

Aqiq irning qoshinda nozuk ermas,
Ne yaxshilik bor ul asli Yamanda?

Qilur qon g'amzasi ko'zlarni bog'lab,
Halol o'lsunki, sehr aylar bu fanda.

Labing qandini so'ray desam, aytur:
«Ayo, ko'rdungmu solmish ko'zni qanda?»

Sochingdin chun o'g'urlar mushk xush bo'y,
Qilurlar band-band oni Xo'tanda.

Tishing injusini to ko'rdi Lutfiy,
Topilmas yoshidek bir dur Adanda.

⁷² Savod – 1) qoralik, qora tus; 2) shahar va nohiyalarning tevarak-atroflari (uzoqdan ko'rinadigan belgilari).

* * *

Ko'nglumg'a qilay chora deding-u necha bora,
Jon bordi sening darding ila emdi, ne chora?

Yusufni ko'rub, Misr eli barcha to'yar edi,
To'ymas kishi sendin, nechakim qilsa nazora.

Bir zulfini tutqach, yana bir qo'l uzatdim —
Kim, dunyada der, topqani bor umri du bora.

Ko'zumda xayoling bor ekan, yosh ajabtur,
Kun bo'lsa ajoyib ko'runur, ore, sitora.

Bir g'amza yetar Lutfiyni devona qilurg'a,
Bordur masal: «Al-oqil-u yakfih ul-ishora»⁷³.

* * *

Gar ko'rsa seni noz ila bo'ston orasinda,
Gulg'uncha bo'lur bog'i guliston orasinda.

Naysonda bulut har nechakim ko'z yoshi qildi,
Tishing kibi dur topmadi ummon orasinda.

Yuzungni ko'rub, o'fthonibon gul qochar erdi,
Miskin yugura olmadi tikon orasinda.

⁷³ Ma'nosi: «Oqilga bir ishora kifoyadir».

La'li uchun o'lsam, yasangiz to'ti g'ilimdin,
To yetsam uchib ul shakariston orasinda.

Horuttek agar sehr qilmas meni shaydo,
Xoling netar ul chohi zanaxdon orasinda?

Jon berguchi – og'zing-u, tishing – turfa-yu oliy –
Kim, ko'rdi guhar chashmayi hayvon orasinda?

Bu Lutfiyni usruk qaroqing o'lturur erdi,
Ul g'amza o'qi kirdi bukun jon orasinda.

* * *

Yor bo'ldi yiroq, men dag'i andin, ne foyda?
Gul bo'lmasa, hazor chamandin ne foyda?

La'ling xayoli bo'lmasa, ko'z nuri bo'lmasun,
Gar bo'lmasa aqiqi, Yamandin ne foyda?

O'lgan sonidaturman o'shul yor hajrida,
Jon bo'lmasa tan ichra, badandin ne foyda?

Rahm aylamas habib, raqibdin ne ko'z tutay,
Qilmas vafo chu yaxshi, yamondin ne foyda?

Sarg'ardi yuzum ul sevarim holidin yiroq,
Chun dona yo'qtur, eski samondin ne foyda?

Umrungni, Lutfiy, yor eshikinda kechurmasang,
Jondin ne hosil o'lg'ay-u, tandin ne foyda?

* * *

Zihi, zuhuri tajalliy – yuzung safosinda,
Savodi kufr muayyan ko'zung qarosinda.

Ne turfa nuqtayi mavhum erur sening og'zing –
Ki, jonni qo'ydi vujudi adam arosinda.

Agar borurmen iliktin, mahalda ayb dagul –
Ki, fitnalar bari – ul g'amza marhabosinda.

Raqib ko'zicha sursang meni, ko'ngul uzmon –
Ki, maslahat ko'p erur husn eli jafosinda.

Ne deb bu holi parishonni aytayin angakim,
Yuzi qarolar erur zulfidek qafosinda.

Ul oy ko'ziga bu sargashtani qachon ilsun –
Ki, oftob nuridur aning havosinda.

Yuzungni ko'rmasa, bir damda jon berur Lutfiy,
Saburliqni tilar ishq muhtalosinda.

* * *

Ko'rdum seni-yu, ketti g'am, al-minnatu lillah⁷⁴,
Jon topti hayot ushbu dam, al-minnatu lillah.

Davlat kuni tug'di, ochilib subhi saodat,
Hijron tuni bo'ldi adam, al-minnatu lillah.

Ul dunyaga jon yetmish edi, yondi badarg'a –
Kim, ko'rdi seningdek sanam, al-minnatu lillah.

Ruxsori yuzung davlatida xasta ko'ngulda
Bo'ldi g'ami ayyom kam, al-minnatu lillah.

Lutfiy sori ko'z uchi bila qildi nigohe,
Yor etti bag'oyat karam, al-minnatu lillah.

* * *

Haqkim, seni dilrabo yaratti,
Oshiqlara chun balo yaratti.

Har qayda vafo raqib uchundur,
Oshiqlara chun jaf o yaratti.

Qilmang meni ishq uchun malomat,
Chun oshiqni ham Xudo yaratti.

⁷⁴ Al-minnatu lillah – Allohga shukr bo'lsin.

Oshiq kishilarni o'ltururga
Tengri seni muntaho yaratti.

Lutfiy, tama etma mehr ondin,
Ko'rklikni chu bevafo yaratti.

* * *

Ey shakkaringda mo'jizi Iyso⁷⁵ qarinası,
Yusuf jamoli – vasf-u sifoting kamınası.

La'ling xayoli zehn ichida naqsh bo'lg'ali,
Ko'nglum erur javohiri g'aybi xazınası.

Ashhab ilik uzotqoli enginggakim bo'lur,
Zeb/var yetar ham ul qaro soch anbarınası.

Ey g'amzang o'qlarig'a nishon ruh paykari,
V-ey, dog'i hasratingg'a makon qalb siynası.

Ul qosh toqına qo'yub erdim, usholdi oh,
Usruk ko'zung olida ko'ngul obginası.

Tor og'zing-u labingni ko'rub tang qolmisham,
Kim ko'rdi ruhi javhari Xotam niginası?

⁷⁵ Mo'jizi Iyso – Iyso (alayhissalom) mo'jizasi.

Lutfiy kalomi yetsa Samarqand ahlina,
Amudin o'tmas edi Xo'jandiy safinasi.

* * *

Ey, jamoling – shami xurshid-u qamar – parvonasi,
Bir sadaf – ikki jahon ahli-yu, sen – durdonasi.

Nuqtadur yo xoli mushkin ul zaqan olmosida,
Olmaning nozukliginda yo ko'runur donasi.

Buzgay uchmoq-u tomug'ni, bo'lmasa zanjiri yuz,
Kimki bo'lg'ay ul musalsal zulfining devonasi.

Ul shakar irni uchun jon berganim to bo'ldi fosh,
Qissayi Farhod-u Shirin bo'ldi el afsonasi.

Jomi vaslingdin manga hajr og'usi bo'ldi nasib,
Go'iyoyo davrungda to'ldi bandaning paymonasi.

Ey latofat mulkida sulton, bu Lutfiy ko'nglin ol,
Farz erur ehson gadog'a – saltanat shukronasi.

* * *

Ko'kdadur har dam fig'onim, ko'rgali sen mohni.
Da'viyi mehrin(g)g'a tonuq tortadurman ohni.

Sen kibi sultonni sevmak haddim ermastur, valek
Bu baloliq ishq farq etmas gado-vu shohni.

Zulf-u oy yuzung firoqida tuman hasrat bila,
Ohkim, zoye kechurdum muncha sol-u mohni.

Donayi xoling tamannosida, ey gul xirmanı,
Qil nazarkim, chehrayi zardim yoshurdi kohni.

Og'zingizning fikrini mundoqki ko'rdum, oxiri,
Boshlag'usidur adam sori meni gumrohni.

Eshikingdur baxt-u davlat, xoki poying – afsarim,
Topmadi Jamshid-u Afridun bu qadr-u johni.

Quvma Lutfiyni eshikdin, ber zakoti husn anga,
Qayda aytsun sen g'ani borında «shay'anloh»ni⁷⁶.

* * *

Jon azalda mehr ila bir mahliqog'a uchradi,
Ul ko'z oldurg'on bila mundoq balog'a uchradi.

Bu ko'ngul ermas, erur jon xasmi-yu bosh yog'isi –
Kim, jahon asbobidin men muftalog'a uchradi.

⁷⁶ «Shay'anloh» – tilanchining so'zi. Asli «Shay'anlilloh» («Alloh uchun biror narsa ber!»). Bu o'rinda vazn e'tibori bilan qisqargan.

Sarnavishtim bo'ldi har yondin baloyi muttasil,
Boshtakim, ko'zum o'shul qoshi qarog'a uchradi.

Zulfitek oshufta tole'man qamarning davrida,
Ne qaro baxt erdikim, bu benavog'a uchradi?

Masti loya'qil kibi bordi iliktin bir yo'li,
Nargisingdin qaysikim, bir marhabog'a uchradi.

Ko'z-u qosh-u qomatingning fitnalik ashkolina
Notavon ko'nglum nazar qilg'ach, anog'a uchradi.

Lutfini kim qarg'adi: «Yo Rabb, balog'a uchra!» – deb –
Kim, seningtek tosh bag'irliq dilrabog'a uchradi.

* * *

Ey lablari ravza salsabili,
Jon naqdi – dudoqlaring sabili.

Qildin desa inchkaroq belingni,
Yo'qtur kishining qol-u qiyli.

Og'zing sifatini qilurda xoma,
Ko'p totliq uchun yorildi tili.

Gar aql quyosh desa yuzungni,
Bordur bu so'z ichra yuz dalili.

Ungay bori ravzasında nargis,
Chun Lutfiy erur ko'zung qatili.

* * *

Bir parivash g'amzasi aqlimni majnun ayladi,
Ko'z yumub-ochquncha holimni digargun ayladi.

Subhidam kuntek chiqib, ko'rguzgach ul qutlug' yuzun,
Toleyim mas'ud-u baxtimni humoyun ayladi.

Ko'p yugurmaktin kiyik ko'zi qarordi sahm yeb,
Ko'r, nechuk g'amzang o'qi oni jigaxun ayladi.

Intizori yo'li ustida qo'yub ketti ko'zung,
Bizni ul Layli sifatliq misli Majnun ayladi.

Sehr elidin voqif erdi hindu-yu Kashmir, bas,
Bu ajabkim, turk ekach ul ko'z yuz afsun ayladi.

Lab-balab vaslin tilab, topmon kanorin nechakim,
Ko'zlarim ol yoshini hasratda Jayhun ayladi.

Bir kun ul husn elining sultoni tutqay deb quloq,
Ishq Lutfiyning so'zini durri maknun ayladi.

* * *

Chu maxfiy og'zi takallum bila mubin bo'ldi,
Kichikda piri Masiho so'zi yaqin bo'ldi⁷⁷.

Qiyomat elga chini birla yuzi ko'rguzdi,
Alomati buki, xurshidu oy qarın bo'ldi.

Biror yuzung sori boqsam, kechur karam bilakim,
Qut oldi el yuzidin ulki, nozanın bo'ldi.

Binafsha sunbulını ko'rdi mushk xirmandek,
Egildi qomati, go'yo xo'shachin bo'ldi.

Kumush bila nechakim ko'nglakı yengı boy edi,
O'zin ko'tarmadi, boshi ostin bo'ldi.

Savodi nargisi aning «Hadoyiq us-sehr» ul –
Ki, tegma san'ati toroıi aqlu din bo'ldi.

Sochini o'g'ri dedim, qildi egrilik paydo,
Aning haqida nekım Lutfiy so'zi chin bo'ldi.

⁷⁷ Masih – hazrati Iso alayhissalomning bir laqablari. Ibroniycha so'zdir, asli «mashih» bo'lib, «muborak» degan ma'nodadir. Baytda Oli Imron surasining 46-oyatga ishora qilinmoqda; ma'nosi: «(Farishtalar yana dedi:) «U (Iso) beshikda ekanida ham, kamolga yetganida ham (payg'ambar o'laroq) insonlarga (xitob qilib) so'zlagaydir. Yana (u) solih zotlardandir».

* * *

Bo'lg'ay havasing menda, to jondin asar bo'lg'ay,
Ishqing yo'lida borg'ay, yuz boshim agar bo'lg'ay.

Oshiq kishining ishi xo'blar bila tushguncha,
Kofir bila tushsinkim, husn eli batar bo'lg'ay,

Jon oraz-u irningdin bo'ldi nag'-u savdoyi,
Savdo eliga darmon chun gul bashakar bo'lg'ay.

Gar bizni shahid etsa bir xanda bila la'ling,
Xokim gili shodidin to hashr kular bo'lg'ay.

Lutfiy, ne ajab, qilsa, yuzungni ko'rub afg'on,
Ko'prog'i chu bulbulning faryodi sahar bo'lg'ay.

* * *

Ey sunbuling nasimida jannat shamomasi,
Ishqingda choki gul kibi jon jaybi jomasi.

Odam hanuz ravzada erdiki, bo'ldi sayd,
Bu xol donasi sari ko'nglum hamomasi.

Ul la'l davrida garav jom uchun faqih,
Bosh qo'ydi dayr ichinda, chi joyi amomasi.

Zulfung g'amida tun kecha ohim tutunidin
To'ldi sipehri majmari, anbar shamomasi.

Ul tor og'iz bila bu ko'ngul rozi ishqina,
Elning havosi mahram emas, xos omasi.

Lutfiy firoqing emgakini daftar etgali,
Afsona bo'ldi ertagilar ishq nomasi.

* * *

Bu ko'ngul jon tortadur ul lablari marjon sori,
Kimki jonliq bo'lsa mayl etgay, bale jonon sori.

Har tarafdin turrayi tarrori din qasdindadur,
Kofir erkan, ne uchun yuzi tushar iymon sori?

Ey ko'ngul, jonni xayoli olida qil peshkash,
Har nima bo'lsa aziz, eltur kishi mehmon sori.

Ahli ma'ni suratingning husnuna hayron qolur,
Misr elining ko'zi yanglig' Yusufi Kan'on sori.

Ko'rgali oshufta zulfungni qamarning davrida,
Xotirim qilmas kashish qat'an sar-u somon sori.

Husn davridur g'animat, emdi qo'y yuzuma yuz,
Oy nechakim bo'lsa komil, yuz urur nuqson sori.

Qosh-u ko'zung g'oratinda Lutfiydin ketti ko'ngul,
Oqibat, toptim so'rog'in Chin-u Turkiston sori.

* * *

Ey, soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami⁷⁸,
Halqa-halqa ruhning sarmanzilidur har xami.

Sunbulingni torog'onda gul uza tongdur araq –
Kim, bulutliq kechani(ng) albatta, bo'lmas shabnami.

Sen parivash hurdin mushkil durur jon saqlamoq,
Chun malak hayrondur ul suratqa, netsun odami?

Men yiroqdin jon berurman, toqatim yo'q boqqali,
Yuzi qattiq ko'zgukim, bo'lmish jamoling hamdami.

Men bu ko'z birla uyotliqman xayoling yuzidin –
Kim, kelur har lahza ul go'shaning bordur nami.

Ul badanning davlatidin tug'di ko'nglakning kuni,
Husn tole ko'rkim, uldur xoli ichki mahrami.

Lutfiyni boshtin magar turguzsang, ey Iso nafas –
Kim, tanidin bo'ldi ko'p jon olg'ali hijron g'ami.

⁷⁸ Savodi a'zam – 1) katta shahar; 2) uzoqdan ko'rinadigan zo'r qoralik, belgi, alamat.

* * *

Gar ohimdin havog'a chiqsa dude,
Ko'rungay har nafas charx kabude.

Ziyon bo'lsa kerak sarmoyayi ishq,
Chu tegmas husningizdin bizga sude.

Ishorat birla kun bechora yangliq,
Qilur har subh husninga sujude.

Nazar qilmas nag'u Lutfiyg'a ko'zung –
Kim, usruklarda bor, albatta, jude.

* * *

Kesti bag'rim tamurlarini bari,
G'amza birla aning (qiy) boqari.

Gahi yuzni qaroqi oli bila
Jigarim qonidin qilur jigari.

Yo'lida tushmisham aningdekkim,
Soyadek menda yo'q vujud asari.

Ko'yidin o'tkaring janozamni –
Kim, meni turgizur aning nazari.

Marhamattin yiroq emas, so'rsang –
Kim, yovuqtur bu xastaning safari.

Qocharini ko'ray desam, qochadur,
Meni kuydurdi, voy, aning qochari.

Tal'atingdin yiroq tushgan uchun
Qoldi Lutfiy-u nolayi sahari.

* * *

Ulki, husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,
Ko'zgudek qildi seni, O'zini paydo qilg'ali.

Qosh-u ko'zungdin qaro ko'rguzdi, bildirmay o'zin,
Fitnaye ul boshladi olamni yag'mo qilg'ali.

«Kof-u nun» naqshi yo'q erdi andakim, ushshoq uchun
Ishq ila husning birikti sho'r-u g'avg'o qilg'ali.

Gavhari yakdona qildi zoti bahrinda seni,
Ahli dillar ko'zini hasratta daryo qilg'ali.

Og'zing-u yuzung sabab bo'ldi azal naqqoshina,
Olami g'aybiy shahodatni huvaydo qilg'ali.

Siz o'tarsiz oydek ko'z tungluki yonida ruh –
O'lturur har go'shadin sizni tomosho qilg'ali.

Gar qaro qayg'u nasibim bo'lmasa yuz soridin,
Men kim erdim, jon bila zulfungni savdo qilg'ali?!

Sensiz emgakdin manga bo'ldi o'lum jon rohati,
Qaydadur, yo Rabb, ajal, borsam taqozo qilg'ali.

Chuv saloting'a alik bermas ko'zung nazzorasi,
Lutfiy qul kimdur, visolingni tamanno qilg'ali?!

* * *

Sunbulingni tong yeli tarqatu gulpo'sh etgali,
Bexato Chin butlarini halqadargo'sh⁷⁹ etgali.

Jong'a hijron zahri tegdi, voy, aningki achchig'i
Qo'ymadi vasling mavidin jur'aye no'sh etgali.

Siz agar yod etmasangiz bizni, sultonsiz, begim,
Bandani ne haddi bor sizni faromush etgali?

Vah, nelar o'lturgay erdi bizni hajr andishasi,
Kelmasa har dam xayoling xayli madhush etgali?!

Gul yangoqing nori bulbuldek fig'ondin Lutfiyni
Bir nafas imkon emaskim, qo'ysa xomush etgali.

⁷⁹ Halqadargo'sh (halqabargo'sh) qilmoq – qul qilmoq, asir etmoq, o'z mulki hukmiga olmoq.

* * *

Ohkim, qildi qarori yo'q ko'ngul shaydo meni,
Vah, ne turluk vola etti tinmag'ur savdo meni.

Men bu suratni agar sevdim esa, yozg'urmag'il –
Kim, azal naqqoshi qildi ishq uchun paydo meni.

Aql-u din bor erdi bir chog'da meni devonag'a,
Zulfuning savdosi yetkurdi qaro yergo meni.

Necha sırımni yashursam, sınıadin bexos ishq
O'z-o'zi faryod etarkim, aylagan rasvo meni.

Ko'z uchi boqmas, taollalloh, necha oh aylasam,
Qildi ojiz u kamoli husn istig'no meni.

Toleyimning sho'r ekanin men chu andin angladim –
Kim, suchuk so'z bermay o'lturdi labing amdo meni.

Lutfiydek hijron tununda lol edim, hayron qolib,
Gul yuzung qildi yana bulbul chiloy⁸⁰ go'yo meni.

* * *

Ey sochingning soyasinda oftobi xovari,
Tug'madi sen hur yangliq nasli odamdin pari.

⁸⁰ Bulbul chiloy – bulbul kabi.

Shakkar irning so'zi tildek tushgali afvohda,
El og'izlanmas nabot otini, illo sarsari.

Gul urunur qullug'ing tavqin xijolat berma deb,
Bo'ynig'a fo'ta solib, g'arqi araqdur bir sari.

Ma'dani ruh-u latofat konidur la'li labing,
Qadri ul javharni mendin so'rki, menman javhari.

Tutmasun Tengri ravokim, bo'lg'ay ichkingiz raqib,
Voy, oningdek shum yuzluk qutlug' uydin tashqari.

Zulmati zulfungda isbot topg'ali obi hayot
Xizr iqbol kerak, yo davlati Iskandari.

Ulki g'amzang birla zulfung qildi Lutfiy jonig'a,
Qilmadi mo'min haqinda hech Xaybar kofari!

* * *

Tan bo'ldi yuzung mehri uchun garchi hiloli,
Bir zarrasi birla ko'runur dardi-yu holi.

Sendin ne tamanno qilayin mehr-u vafoni,
Kim ko'rdi vafo, andaki bor husn-u jamoli?

Men hajr ila darmonda-yu, sen ko'zdin ucharsan,
Ey voyki, yo'qtur manga qushdek par-u boli.

Har tori soching uchini yel yuzga tekurdi,
Nozuklik uchun bo'ldi yuzung ustida xoli.

G'amgin bu ko'ngul toki tamoshodin ochilg'ay,
Ko'z bog'ida tikdim qaddidin toza niholi.

Yillar seni ko'rsam, menga bir damcha ko'runmas,
Bir damki seni ko'rmasam, uldur manga soli.

Ko'yungda tilar Lutfiyi bechora mazorin,
To suratidin bo'lg'ay eshikingda xayoli.

* * *

Ul oyki, qazo bo'ldi manga ishq'i balosi,
Mehri bila o'lguchiga yo'q zarra vafosi.

Darveza qilurlar yuzidin nur mah-u mehr,
Sultoni jamol uldur-u, husn ahli – gadosi.

To'biy ne tilar ravzada har evga urub bosh,
Gar boshida yo'qtur qaddingiz sarvi havosi.

Vaslingdin ugun hech nima Haqdin tilamasman,
Yo Rabbki, ijobat bo'la bu banda duosi!

Lutfiy o'lar, ul o'zgaga har gah qiyo boqsa,
Bu hasrat-u g'amningki yo'q ul hech qiyosi.

* * *

Har nechaki jonga tegar ul yor jafosi,
Boshimg'a tushubdur, netayin, ishq'i havosi.

O'qdek meni ul g'amza jaf'o birla tuz etgach,
Bildimki, yiroq solgusi hargiz qoshi yosi.

So'rg'ayman, agar bersa ilik, la'lini oncha –
Kim, qolmag'ay irningdagi ul xol yarosi.

Dardimg'a dedikim: «Qilayin vasl ila darmon»,
Hajr o'turadur bizni, nedur emdi davosi?

Bir zarra vafo topmadi Lutfiy sevarindin,
Ko'rklik kishining bo'lmas emish mehr-u vafosi.

* * *

Isbot etar agarchi yuzung oftobni,
Zulfing abiri⁸¹ nafy qilur mushki nobni.

Usruk kishi bo'lur chu javonmard, ne uchun
Qilmas rioyate ko'zung ushbu xarobni?

Ey shahsuvor, o'tma nazardin, inon solib –
Kim, ko'z qoni bu yo'lda ko'tarur rikobni.

⁸¹ Abir – xushbo'y modda, ifor.

Beli xayoli birla adam bo'ldim-u, hanuz
Tutmas ravo bu xastaga bir rishta tobni.

El ko'zidin chu yuz-u taningning hijobida
Maxfiydur ul jamol, netarsan niqobni?

Kun pardag'a kirib yuzung oyi hayosidin,
Yig'lar o'zi-yu, orag'a tortar sahobni⁸².

Bir kun jafu tugansa, netarsen, kerak bo'lur,
Ko'p sarf qilma Lutfiyga javr-u itobni.

* * *

Ko'kardi chaman, guluzorim qani?
Sihi sarv bo'yluq nigorim qani?

Topibdur bukun vasli gul andalib,
Darig'o, mening navbahorim qani?

Eshikingda tuproq bo'ldum, vale
Demadingkim: «Ul xoksorim qani?»

Sening ahdi husnungda yo'q menda sabr,
Mening ul burunqi qarorim qani?

⁸² Sahob – bulut.

Erishur debon qilma Lutfiyg'a qahr,
Bu ishda, begim, ixtiyorim qani?

* * *

Haromi⁸³ g'amzang elindin madad, hoy,
Ko'zung sehri malolindin madad, hoy.

Firoqing cho'lida chanqob o'larman,
Biror vasling zilolindin madad, hoy.

Tutubman ro'za vasling iydi uchun,
Qaro qoshing hilolindin madad, hoy.

Qotilmish barcha har yerda balolar,
Ko'zu qoshida xolindin madad, hoy.

Seningdek tosh bag'irliqdin tilar mehr
Ko'ngul fikri muholindin madad, hoy.


Meni qobsab turur hijron cheringi,
Manga, shohim, visolindin madad, hoy.

Adamdur Lutfiy beling fikri ichra,
Aning nozuk xayolindin madad, hoy.

⁸³ Haromi – qaroqchi, yo'lto'sar o'g'ri.



Ruboiylar



* * *

Ey sening har bir karashmang – qotilim,
O'tti Majnundin mening dardi dilim.
Ko'nglum o'rtandi, dag'i jonim chiqar,
Ishqingizdin ushbulardur hosilim.

* * *

Seningsizin aysh-u sururum qolmadi,
Yig'lamoqtin ko'zda nurum qolmadi.
Ul quyosh yuzungdin ayrulg'on uchun,
Qayg'udin zarra huzurim qolmadi.

* * *

Sayd qildi bizni jayron ko'zlari,
Delva bo'ldi jon, eshitib so'zlari.
Yor agar qilsa inoyat, ne ajab,
Qulni chun devona qildi o'zlari.

* * *

Jomı ishrat har qachon no'sh aylasang,
G'amza birla bizni madhush aylasang,
Xidmatingda tutmas erdim bu umıd –
Kim, menı mundoq faromush aylasang.

* * *

Dilbaro, Yusuf jamoli sandadur,
Dilraboliqningki holi sandadur,
Umr kechu-yu, meni bir so'rmading,
Bevafoliqning kamoli sandadur.

* * *

Har necha javr-u jafolar sandadur,
Yuz chevurman, toki jonlar tandadur.
Bevafoliqni ko'rub, uzmas umid,
Bas, qatiq jonliq ko'ngulkim, mandadur

* * *

Shevakim, ul sarvi ozodimdadur,
Ham magar ul mohi Navshodimdadur,
To abad hargiz unut bo'lg'usi yo'q,
Bu jamol-u husnikim, yodimdadur.

* * *

Bu ne qosh-u g'amzayi ayyor erur?
Bu ne shakl-u sheva-yu raftor erur?
Sizga osondur agar men bo'lmasam,
Sensizin lekin menga dushvor erur,



Tuyuqlar



* * *

Ko'z yoshim tuproq ila gar qotila,
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.
G'amzasi o'lturdi-yu, ul bexabar,
Men agar o'lsam, ne g'am ul qotila?

* * *

Garchi qurutmas ko'zumning yoshini,
Haq uzun qilsun ul oyning yoshini.
Yig'lama ko'p, bu vujudning ishq o'ti
Ne qurug'in qo'yg'usi, ne yoshini.

* * *

Bog'i husningdin gule gar tergamen,
Bosh agar borsa, bu yo'lda tergamen.
Oy yuzungni kunga o'xshatqan uchun
G'arq bo'lmushmen uyotin terga men.

* * *

Bir nazar qildim, qul o'ldum oya men,
Ul sababdin jon-u dilni oyamen.
Gar meni shohimg'a yetkursa Xudoy,
Hazratingda sarguzashtim oyamen⁸⁴.

⁸⁴ Aytaman.

* * *

Ko'ngluma, har yonki boqsam, dog'i bor,
Har necha dardimni desam, dog'i bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo'ldi firoqing dog'i bor.

* * *

Charxi kajraftor elidin yozamen,
Chiqmadim hijron qishindin yoza men.
Bir meni yorliq bila yod etmas ul,
Har necha ul shohga qulluq yozamen.

* * *

Necha dedim: «Ul sanamg'a bormog'in!»
Qilmadi ul tark oxir bormog'in.
Munchakim, xudro'ylik' ko'rguzdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormog'in.

* * *

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,
Vah, qachon yetkayman ul dilbanda men?
Bevafolarg'a meni qilding asir,
Sen menga sultonsan, ey dil, banda – men.



Qit'alar



* * *

Aql-u jonning ofati, din g'orati,
Har ne bor – ul ko'zi birla qoshtadur.
Ketmadi savdosi hargiz boshtin,
Rost ayturlarki: «Davlat boshtadur».

* * *

To'nga sig'masman farahdin gul kibi,
Kelsa ul sarvi ravon bir-bir manga.
Muncha yil ketgan bu baxt-u davlatim,
Shukrilillahkim, kelur bir-bir manga.

* * *

Bermagil derlar vafosizga ko'ngul –
Kim, aning no'shinding ortuq neshi bor.
Uzmagayman la'lidin, o'lsam, umid,
Jon mening jonim, kishining neshi bor?⁸⁵

* * *

Ey qaroqchi ko'zli dilbar, o'yla bil,
Jon ayoman sen kibi jononadin.
Husn-u lutf-u surat-u ma'ni bila
Tug'magay sentek yana jon onadin.

⁸⁵ Ne ishi bor?

MUNDARIJA

Hazrat Alisher Navoiyning Mavlono Lutfiy haqlaridagi soʻzlaridan.....	3
---	---

GʻAZALLAR

«Ey, ikki jahon birliging isbotga goʻyo...».....	6
«Oy yuzung olida xijl husn eli Rum-u Chin aro...».....	7
«Ey pari vuzluk begim, jonlar fido boʻlsun sanga...».....	8
«Qachonki gʻamzasi koʻz qonima qaro qilsa...».....	9
«Jon netkay, erdi dardın(g)ga hamroh boʻlmasa?...».....	10
«Davlati vasl iltimosi ne hikoyatdur manga...».....	10
«Jamol-u husningga soʻz yoʻq, vafo kerak boʻlsa...».....	11
«Suratingni kimki koʻrdi, qildi, jono, jon fido...».....	12
«Oy yuzung lavhinda mahfuz oyati «Umm ul-Kitob»...».....	13
«Ey gʻamza bila koʻnglum uyin qilgʻuchi gʻorat...».....	14
«Labing latofatdin, baski, fahm qildi uyot...».....	15
«Zulfungni koʻrub qildi koʻngul mayli ziyorat...».....	15
«Xat qildi yuzung musʻhafidin husn rivoyat...».....	17
«Ey gʻamzasi miskinlarga koʻp qilgʻuchi bedod...».....	17
«Pistadek ogʻzın(g)ga shakar», – dedilar...».....	18
«Ul koʻzki Horut anga shogirdi kamindur...».....	20
«Jamolıngkim tajalliy koʻzgusidur...».....	21
«Sochingkim, mushk anıng sharmandasidur...».....	21
«Har kun manga yuz qatla gar ul oy koʻrunur...».....	22
«Gul chehralar ochunda agar sad hazor erur...».....	23
«Husn-u jamol ichında nechakim kamoli bor...».....	23
«Faryodki, boshimda xatarliq havase bor...».....	24
«Sening usruk koʻzungga ne xabar bor?...».....	25
«Laylat ul-meʻrojning sharhi sochi tobındadır...».....	26
«Ulkim yangoqi koʻzuma gulzor koʻrunur...».....	27

«Bo'lmasa gar ul sanami guluzor...»	28
«Zotingda Haq izhori kamolot qilibtur...»	28
«Haq ul kunkim jamoling bor etibtur...»	29
«Halqa-halqa zulfkim, ul mohi tobonindadur...»	30
«Seni jamiki, gulruxsor derlar...».....	31
«Jonni mehringga azal subhinda moyil qildilar...».....	32
«So'zlarda qachonkim ko'zi qoshi bila o'ynar...».....	33
«Qoba qavsayn»i maqominda ko'zung qon qiladur...».....	33
«Ul zulfi tuzoqiki, ko'ngul saydi uchundur...».....	34
«Ko'zung qorasi – fitna, vale oqi balodur...»	35
«Ko'rgali la'ling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur...»	35
«La'lig'a boqsam, bilurkim, ko'nglum ul yon tortadur...» ...	36
«Nortek yangoqing shavqidan jonlar bari afgor erur...»	37
«Ko'zim nazari toki yuzunguzga tushubtur...».....	38
«Yo Rabb, ul dilbar malak, yo hur, yoxud jon erur...»	39
«Yoz fasli barcha shod-u, ko'nglimiz g'amnok erur...»	39
«Ey ko'z, yuziga boq-u, dag'i nuri safoni ko'r...»	40
«Qadingning naxli, ey sarvi sarafroz...».....	41
«Jon-u ko'ngul kishvarining xonisiz...»	42
«Jon hasrat ila kuydi-yu, dildor topilmas...»	42
«Dilbar eshiginda tursa bo'lmas...».....	43
«Dunyani kezdim-u, zebo, seni-o'q ko'rdum, bas...».....	44
«Sening shirin labing jondin qolishmas...»	45
«Dilbar sog'inmag'on jihati bu firoq emish...»	45
«Men xasta qonina kamar sohujamole bog'lamish...».....	46
«Ey, sening javr-u jafong meht-u vafodin yaxshiroq...».....	47
«To jamolingdin tushubturmen yamon ko'zdek yiroq...»... 48	48
«O'lturur hujron meni, ul rohati jondin yiroq...»	49
«Ko'ngul to orazingg'a bo'ldi mushtoq...».....	49
«Nortek yonoqlaring kibi sham anjumanda yo'q...».....	50
«Ohu ko'zungkim, o'zida bir dam qarori yo'q...».....	51

«Bizga nedin ul ohu qaroqning nazari yo‘q?..».....	52
«Ishq tushsa har ko‘ngulga, dard-u g‘amdin chora yo‘q...»	53
«Zihi sarv ustuda yuzung qamardek...»	53
«Boshing‘a soya sol, ey sarvi cholok...».....	54
«Ey, ko‘zungning shevasi – olamni madhush aylamak...»...	55
«Jon mamlakatini yoqti yonar o‘tqa firoqing...».....	56
«Firoqingg‘a meni soldi qaroqing...».....	57
«Karashma birla necha jonima jafo qilg‘ung...».....	57
«Ey pari ruxsorlar, bizga nigoh aylab o‘tung...»	58
«Jonim chiqadur dard ila, jononima ayting...».....	59
«Necha qo‘yg‘ay bag‘rima dog‘ ul yuzi mohim mening?...».	59
«Necha kuygay bu yonar o‘tqa zaif jonim mening?...»	60
«Ey sihi qad, bandani hajr ilkidin ozod qil...».....	61
«Ey oyati rahmat yuzungiz sha‘nida nozil...».....	62
«Ey sarvi sihi, qomatini(g)ga jon bila moyil...».....	63
«Ey sanavbar bo‘yli dilbar, fikri hijron qilmag‘il...».....	64
«Xo‘blar jafosi ilkidin har necha biryondur ko‘ngul...»	65
«Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul...»....	65
«Oy yuzungdin yetti kishvar xo‘blang‘a infi‘ol...»	66
«Nigoro, sensizin mandin ne hosil?...»	67
«Ey, latofat bo‘stoni ichra sarvi xushxirom...»	68
«Maqsudg‘a tekurmay ul gulandom...»	69
«Bihamdillohki, keldi dilraboyim...».....	69
«Ey jon chaman ichra bo‘yi sarvi ravonim...».....	70
«Jamoling shamina parvona keldim...»	71
«Kelginki, firoqing o‘tida qolmadi holim...»	72
«Yo Rab, ne ajab yori jafokora yo‘luqtum...»	72
«Ey jafo dog‘i bila ko‘nglumni afgor aylagan...»	73
«Ul oykim, aning mehrida mashhuri jahonman...».....	74
«To ko‘nglum urdi dam yuzung oyi havosidin...»	75
«Qadd-u og‘zingga boqsam, oh derman...».....	75

«Latofat qiblası olamda sensen...».....	76
«Ayo dilbar, vafo qilmasmusen sen?..».....	77
«Meni og‘zing uchun shaydo qilibsən...».....	77
«Dilbaro, sindurma ahd-u, yonmag‘il miysoqdin...».....	78
«Ey turfa pari odamining jonimudursen?..».....	79
«Qon bo‘ldi ko‘ngul firoqingizdin...».....	80
«Necha jonima jafo qilursen?..».....	80
«Ey husn-u jamol ahli xodimlar-u sulton – sen...».....	81
«Oy yuzungning husnikim, ruh anglamas kayfiyatın...».....	82
«Ey orazi bargi gul-u, ey qomati sarvi chaman...».....	83
«Boqmas manga jonona, ajab holat emasmu?..».....	83
«Yo Rabbki, ne mahliqo bo‘lurmu?..».....	84
«Ey, sening la‘li labing javhanna jon sadqa...».....	85
«Ne balo, husn-u malohat berdi Subhon yuziga...».....	86
«Yuzungning orzusi-yu turrang intizori bila...».....	86
«Sensen sevarım, xoh inon, xoh inonma...».....	87
«Ey, qadding to‘biyi jannat haddi gulgun ustina...».....	88
«Sunbulingni ko‘rgali guldek ruxi ol ustina...».....	89
«Yolg‘uz gul emas lola yuzungdin araq ichra...».....	90
«G‘arq o‘ldi yuzung xijlatidin gul araq ichra...».....	91
«Agar sen bo‘lmasang guldek chamanda...».....	92
«Ko‘nglung‘a qilay chora deding-u necha bora...».....	93
«Gar ko‘rsa seni noz ila bo‘ston orasında...».....	93
«Yor bo‘ldi yiroq, men dag‘i andin, ne foyda?..».....	94
«Zihi, zuhuri tajalliy – yuzung safosında...».....	95
«Ko‘rdum seni-yu, ketti g‘am, al-minnatu lillah...».....	96
«Haqkim, seni dilrabo yaratti...».....	96
«Ey shakkaringda mo‘jizi Iyso qarınasi...».....	97
«Ey, jamoling – shami xurshid-u qamar – parvonasi...».....	98
«Ko‘kdadur har dam fig‘onim, ko‘rgali sen mohni...».....	98
«Jon azalda mehr ila bir mahliqog‘a uchradi...».....	99

«Ey lablari ravza salsabili...»	100
«Bir parivash g'amzasi aqlimni majnun ayladi...»	101
«Chu maxfiy og'zi takallum bila mubin bo'ldi...»	102
«Bo'lg'ay havasing menda, to jondin asar bo'lg'ay...»	103
«Ey sunbuling nasimida jannat shamomasi...»	103
«Bu ko'ngul jon tortadur ul lablari marjon sori...»	104
«Ey, soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami...»	105
«Gar ohimdin havog'a chiqsa dude...»	106
«Kesti bag'rim tamurlarini bari...»	106
«Ulki, husn etti bahona elni shaydo qulg'ali...»	107
«Sunbulingni tong yeli tarqattı gulpo'sh etgali...»	108
«Ohkim, qildi qarori yo'q ko'ngul shaydo meni...»	109
«Ey sochungning soyasinda oftobi xovari...»	109
«Tan bo'ldi yuzung mehri uchun garchi hiloli...»	110
«Ul oyki, qazo bo'ldi manga ishqı balosi...»	111
«Har nechaki jonga tegar ul yor jafosi...»	112
«Isbot etar agarchi yuzung oftobni...»	112
«Ko'kardi chaman, guluzorim qani?...»	113
«Haromi g'amzang elindin madad, hoy...»	114
RUBOIYLAR	115
TUYUQLAR	118
QIT'ALAR	121

10.800 €

Adabiy-badiiy nashr

LUTFIY

Muharrir: Abdulla SHAROPOV

Badiiy muharrir: Bahiddin BOZOROV

Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV

Sahifalovchi: Rustam ISOQULOV

Musahhih: Shahzoda HAKIMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 55

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.


Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javohir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978-9943-6359



9 789943 6359